


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

Ibragimova Hulkar Maqsudovna


5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Nikoh bilan bog'liq evfemizmlar

Ilmiy rahbar

f.f.n., dots. A.Primov



Urganch – 2016

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. OILA QURISHGA OID MUNOSABATLAR BILAN BOG‘LIQ MUOMALA EVFEMIKASI.....	15
1.1. Evfemizmlar va ularni o‘rganish masalasi	15
1.2. Sovchi nutqi evfemikasi.....	21
1.3. Nikoh va nikoh to‘yi nutqi evfemikasi.....	32
II BOB. NIKOH TO‘YIDAN KEYINGI MUOMALA NUTQI EVFEMIKASI.....	40
2.1. Er-xotin nutqi evfemikasi	40
2.2. Homiladorlik va tug‘ruq bilan bog‘liq evfemalar.....	49
2.3. Er-xotinning qarindoshlari bilan muomala nutqi evfemasi.....	53
XULOSA.....	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	58
ILOVA.....	61

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning: «Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlarini tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda»¹, degan so'zlari o'zbek millatining nafaqat jamiyatdagi o'z mavqeyini belgilashga, balki eng rivojlangan xalqlar qatoridan munosib o'rin egallashga bo'lgan da'vat hamdir. Ona tilimizning ravnaqi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi xalqimiz ma'naviy-ma'rifiy salohiyatining yanada yuksalishiga asos bo'ldi. Bugun o'zbek tilini yaxlit bir tizim sifatida o'rganish, uning nutqiy madaniyatini zamon talablari darajasiga ko'tarish faoliyatimizning tarkibiy qismiga aylandi. O'zbek tili so'z turkumlariga oid lug'aviy birliklarni funksional-stilistik aspektda o'rganish ana shu masalalarning ma'lum qismini hal etishga ko'maklashadi. O'zbek tilshunosligida nikoh bilan bog'liq evfemizmning funksional-stilistik xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan bir qator ishlar amalga oshirilgan.² Ammo bu tadqiqotlar ko'lamini evfemizmlar hisobiga kengaytirish masalasi tilshunoslarning diqqat markazida turibdi. Binobarin, bu borada hal etilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar anchagina. Shulardan biri alohida lingvistik xususiyatlarga ega bo'lgan nikoh bilan bog'liq evfemizmni stilistik yo'nalishda tahlil etish hisoblanadi. Shu paytga qadar nikoh bilan bog'liq evfemizmlarning funksional-stilistik imkoniyatlari yaxlit holda monografik yo'nalishda tadqiq etilmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Nutqda turli munosabatlarni shakllantiradigan element hisoblanuvchi nikoh bilan bog'liq evfemizm o'zining leksik-grammatik vazifasidan tashqari, nutqiy vaziyatga qarab turlicha stilistik vazifalarni ham ado etadi va emotsional-ekspressiv o'ttenkalarni vujudga keltiradi.

Evfemizm hodisasi XX asr boshlarida umumtilshunoslikda J. Vandries³, L.A. Bulaxovskiy⁴ kabi tilshunolar tomonidan soha bilan bog'liq adabiyotlarda qayd etilgan bo'lib, ularning fikr-mulohazalari evfemizm mohiyati tavsifining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hodisani alohida millat, alohida jins vakillari (oltoy ayollari nutqi)

¹Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - Toshkent: Sharq, 1998. - B. 3.

²Pardaev Z.N. O'zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...dis avtoref. - Samarqand, 2004. - 22 b.; Pardaev A.B. Hozirgi o'zbek tilida ko'makchilarning funksional-stilistik xususiyatlari: Filol.fan.nomz. ...dis. avtoref. - Samarqand, 2005.-26 b.; Qo'ng'urov R. O'zbek tili stilistikasidan ocherklar. - Samarqand: SamDU nashri, 1975. - 240 b.; Qo'ng'urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. - Toshkent: Fan, 1980. - 168 b.

³Вандриес Ж. Язык. – М.: Учпедгиз, 1937.

⁴Булаховский Л.А. Введение в языкознание. Часть 2. – М.: Учпедгиз, 1953.

misolida tadqiq etgan olimlar sirasiga A.N. Samoylovich⁵, N.A. Baskakov⁶larni kiritish mumkin. Ular evfemizmni etnik hodisa sifatida kuzatib, ko‘pqirrali jihatlarini yoritishga harakat qilishadi. E.A. Agayan⁷, O.N. Turbachev⁸lar ham ma‘lum guruh mentalitet doirasida bu til hodisasini tadqiq etishdi. S. Otayev⁹ turkman tili evfemizmlari, G.G. Musaboyev qozoq tili evfemizmlari, V.P. Dorbakova¹⁰ mongol xalqi evfemizmlari, N.G. Mixaylovskaya Uzoq sharq tillari – chukot, xanti-mansiy, nanay xalqlari tilida uchraydigan evfemizmlarni tahlil qilishgan. Shuningdek, tuva tilida uchraydigan evfemizmlar borasida S.P.Vanshteyn¹¹, Sh.Ch.Sat¹², ingliz tilida uchraydigan evfemizmlar xususida I.V.Arnold¹³ kabi tadqiqotchilar ham o‘z ishlarida ba‘zi fikrlarni bildirishgan.

A.A.Reformatskiy¹⁴ tabu o‘rnida qo‘llanilayotgan evfemik birliklarni etnik taraqqiyot bilan bog‘liq deb hisoblaydi. Tabuning paydo bo‘lishiga turli bid‘at va xurofotlar sabab bo‘lganligini aytib, evfemizmlar uning nomini “yopish” uchun xizmat qilishini ta’kidlaydi. R.A.Budagov¹⁵ esa tabuning paydo bo‘lishiga insoniyatning e’tiqodi turtki bo‘lganligi va u ma‘lum ma’noda tafakkur rivoji omillaridan ekanligini e’tirof etgan.

Evfemizm hodisasi B.A. Larin (1961)¹⁶, A.M. Katsev (1977), N.S. Boschayeva (1989), L.V. Artyushkina (2002), G.G. Kujim (2003) va boshqa tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, uning turli jihatlarini yoritilgan. Masalan, L.V.Artyushkina¹⁷ evfemizmlarning almashinishi va semantik tiplarini tadqiq etgan bo‘lsa, N.S.Boschayeva¹⁸ tomonidan uning pragmatik aspekti keng o‘rganildi. G.G. Kujim¹⁹ evfemizmni tilning “melirativ” vositasi sifatida tadqiq qiladi, A.M. Katsev²⁰ uni ijtimoiy psixologik jihatdan talqin etdi. Bu hodisaning qayta nomlash bilan

⁵ Самойлович А.Н. Женские слова у алтайских тюрков // Язык и литература. – Л., 1929. Т 3. – С. 124-125; Самойлович А.Н. Запретные слова в языках казах-киргизской замужней женщины. – СПб: Рус. вост. отд. общество. – 1915. – С. 167.

⁶ Баскаков Н.А. Пережитки табу и тотемизма в языках народов Алтая // Советская тюркология. – Баку, 1974. – №2. – С.3-9.

⁷ Агаян Э.А. Введение в языкознание. – Ереван: Университет, 1960. – С.269.

⁸ Турбачев О.Н. Из истории табуистических названий // Вопросы славянского языкознания. Вып. 3. – М., 1958. – С.12.

⁹ Атаев С. Эвфемизмы в туркменском языке: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Ашхабад, 1955. – С.21.

¹⁰ Дарбакова В.П. Омонимия. МНР // Ономастика. – М.: Наука, 1969. – С. 199-200.

¹¹ Ванштейн С.П. Личные именно-термины родства и прозвища у тувинцев // Ономастика. – М.: Наука, 1969. – С. 128-131.

¹² Сат Ш.Ч. Табу и эвфемизмы в тувинском языке // Советская тюркология. – Баку, 1981. – С. 45.

¹³ Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1959. -С.12-55.

¹⁴ Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М.: РАН, 2005.

¹⁵ Будагов Р.А. Введение в науку о языке. – М.: Индрик, 2003.

¹⁶ Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Ученые записки ЛГУ. – Л., 1961.

¹⁷ Артюшкина Л.В. Семантический аспект эвфемистической лексики в современном английском языке: Дисс...канд. филол. наук. – М., 2002.

¹⁸ Босчаева Н.Ц. Контекстуальная эвфемия в современном английском языке. – Л.: Наука, Ленинградское отд., 1989.

¹⁹ Кужим Г.Г. Универсальный лингвистический закон триады: Дисс...канд. филол. наук. – Армавир, 2003.

²⁰ Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке. – Л.: Наука, 1977.

bog‘liq tomoni esa N.M.Berdova²¹ tomonidan tadqiq etilgan, Ye.P. Senechkina evfemizmlarning daxldor belgilarini ko‘rsatdi.

XXI asrdan boshlab rus tilshunosligida evfemizm mavzusi doirasida 156 ga yaqin nomzodlik dissertatsiyalari yoqlangani bu hodisani o‘rganishning rivojidan dalolat beradi.

O‘zbek tilshunosligida bu atama 1963-64-yillarda N.Ismatullayevning “Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar”²² nomli dissertatsiyasi orqali o‘rnashdi. 1997- yilda A.Omonturdiyev evfemizmni “uslubshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida allaqachon o‘z yechimini topishi kerak bo‘lgan mavzu”²³ sifatida keng doirada o‘rganib, o‘zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi.

Tilshunos M. Mirtojiyevning “O‘zbek tili semasiologiyasi” monografiyasida tabu va evfemizm hodisalarining munosabati, ularning o‘rganilish tarixi masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Olim evfemik ma‘noning hosila ma‘no ekanligi, bu hosila ma‘nolar metaforik, metonimik usullarda vujudga kelishini, sinekdoxik va vazifadoshlik asosida evfemik ma‘no paydo bo‘lmasligini ta’kidlaydi²⁴.

Aytib o‘tish kerakki, evfemizm xususida tilshunos olimlar tomonidan yo‘l-yo‘lakay ham fikrlar bildirilib, unga turli tomondan yondoshilgan. Masalan, H. Shamsiddinov so‘zlarning evfemik funksional-semantik sinonimlari²⁵ haqida fikr-mulohazalarini bildirsa, A.E.Mamatov doktorlik ishida frazeologizmlarning evfemik va disfemik shakllanishiga alohida to‘xtaladi²⁶. Shuningdek, ayrim badiiy til bilan bog‘liq ishlarda ham til birliklarining evfemik ma‘nosiga e‘tibor qaratiladi. Jumladan, “Boburnoma” leksikasini maxsus tadqiq qilgan olima Z.Xolmonova²⁷ unda qo‘llangan evfemizmlar xususida ayrim fikrlarni bayon etgan. Tilshunos M. Mirtojiyevning “O‘zbek tili semasiologiyasi” monografiyasida evfemizmlarga maxsus o‘rin ajratilgan²⁸.

A. Hojiyevning 1985-yilda qayta nashr qilingan “Lingvistik terminlar izohli lug‘ati”da evfemizmga izoh beriladi²⁹.

Ma‘lum bo‘ladiki, evfemizm o‘zbek tilshunosligida disfemizmga nisbatan kengroq

²¹ Бердова Н.М. Эвфемизмы в свете теории вторичной номинации: Дисс... канд. филол. наук. – М., 1998.

²² Исмагуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1963. – С.19.

²³ Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди...дисс. – Тошкент, 1977. – Б. 176.

²⁴ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 119-127.

²⁵ Шамсиддинов Х. Сўзларнинг эвфемик функционал-семантик синонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1997. - № 6. – Б. 22.

²⁶ Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 1999.

²⁷ Холмонова З.Т. Бобурнома лексикаси тадқиқи: Филол фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009.

²⁸ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 119-127.

²⁹ Ҳожиёв А. Лингвистик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 109.

o'rganilgan bo'lib, bugungi kunga qadar yuqorida sanab o'tilgan olimlar tomonidan uning asosiy nutqiy xususiyatlari tadqiq etilgan.

Hozirgi kunda tilshunoslikda evfemiya hodisasi va evfemizmlar borasida qator tadqiqotlar olib borilgan. Lekin, o'zbek va rus tilshunosligida bu hodisaning o'rganilish salmog'i katta bo'lsada, tilshunoslik doirasida uning talqin etilishida yakdillik kuzatilmaydi.

Ko'pchilik olimlarning diqqati evfemizmnining ta'qiq va niqoblash vazifasini bajarish xususiyatiga ega ekanligiga qaratilgan bo'lishiga qaramasdan, evfemiyaning yagona interpretatsiyasi (ma'nosi) yo'qligini ta'kidlashadi.

Ne'mat Ismatullayev birinchi bo'lib tabu va evfemizim hodisasiga doir boy ma'lumotlar to'plagan, ularga munosabat bildirib umumlashtirgan, tabu va evfemizim hodisasini yoritgan, ilmiy va amaliy jihatdan asoslagan.

N. Ismatullayev o'zbek tilidagi evfemizmlarning paydo bo'lish sabablari haqida gapirgach, ularni tasnif qiladi, guruhlaydi va har bir sotsial qatlam nutqida qo'llanadigan evfemizmlarning muomaladagi ahamiyatini, lug'at tarkibini boyitishdagi qimmatini tahlil qilib, ilmiy-amaliy xulosalarga kelgan³⁰. Natijada bu ish shu soha bilan bog'liq masalalarni, jumladan, evfemizmlarni keyingi bosqichda, ya'ni uning funksional uslubiy xususiyatini monografik rejada o'rganishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tabu va evfemizim mavzusi ana shu mavjud ishlardan ijodiy foydalanilgan holda birinchi marta 1983-yilda oliy maktab uchun tuzilgan "O'zbek tili stilistikasi" nomli darslikda ancha keng yoritilgan. Unda mualliflar tabu va evfemizmlarga doir umumiy ma'lumot berish bilan birga, uning nutq vositasi sifatida ahamiyati, hatto kontekstual individual evfemizmlar haqida ham to'xtalib o'tgan³¹. Tabu va evfemizim ibtidoiy din, ongi ojiz odamlarning g'ayritabiiy dunyoqarashi, xurofot, bid'at, rasm-rusumlar ta'sirida paydo bo'lgan eskilik qoldiqlari bo'lib, jamiyatning keyingi taraqqiyotida – madaniylashgan bosqichlarida yo'q bo'lib boradi, degan qarashlar³² o'zini oqlamaydi.

Tabu va evfemizmnining paydo bo'lishidagi sabab, zaruriyat va qonuniyatlar, ularning evolyutsion taraqqiyoti, tabulashtirish asoslari, xarakteri, evfemizmlarning o'rganish obyekti, mezon va me'yorlari, ko'lami, chegarasi, til tizimi (sathi)ga munosabati, evfemizmnining shakllanishida, evfemik ko'chishda metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlikning roli; evfemik ma'noning 1) omonimiya, polisemiya, sinonimiyaga munosabati; 2) nutqning badiiy

³⁰ Исмагуллаев Н. Хозирги ўзбек тилида эвфемизмлар: ТошДПИ Илмий асарлар тўплами. Т.42. 1-китоб. – Т., 1963.-Б. 8,19-28, 3-59.

³¹ Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилстикаси. –Т.: Ўқитувчи,1983. – Б.66.

³² Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке. – Л.: Наука, 1977. – С.17.

vositalari (frazeologiya, maqol, matal, aforizm, epitet, allegoriya kabi), ya'ni leksik-sintaktik figuralar, ekspressiv-emotsional ifodalarga munosabati, qisqasi, uslubiy funksional xususiyatlari tasnifi va tasniflash asoslari, o'rganish metodlari kabilar ilmiy rejada ishlanmagan.

Ayrim manbalarda evfemik vositalar tor doirada, til fakti, passiv leksik birlik deb qaralgan³³. Holbuki, evfemik hodisa tilning muayyan bir sathida, til sifatidagina emas, balki nutqiy qatlam, ya'ni semantik-funksional metodga asoslangan badiiy tasviriy vositalar: trop yoki leksik-sintaktik figuralar sifatida tahlil qilingan.

Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemik qatlami ham rivojlanib boradi. Yangi axloq-odob, yangicha dunyoqarash normalari asosida tabulashtirishning, shu tufayli qo'llaniladigan evfemalarning ham yangi-yangi formalari maydonga keladi. Bunda ibtidoiy tabulashtirish talablaridan farqli o'laroq aytilishi norma bo'lib kelgan ko'pgina so'z va iboralar o'rnida unga (oldingisiga) nisbatan yanada qulay, so'zlovchi va tinglovchi uchun yanada yoqimliroq bo'lgan iboralar qo'llanadi.

Inson nutqi uning ehtiyojidan orqada yurganidek, evfemalar ham qanchalik go'zal, beozor, nozik ma'no ifodalamasin, u tabulashtirilgan tushunchalarning salbiy mohiyatini – xossasini to'la yorit olmaydi, xotiradan bartaraf qil olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, aytilishi uyat yoki biror ko'ngilsiz, noxush dahshatli voqelik qanchalik tabulashtirilmasin, unga nisbatan yangi-yangi evfemalar qo'llanmasin, o'sha uyat yoki noxush voqelik – tushuncha (a'zodagi yomon o'simtadek) o'zini namoyon qilaveradi. Masalan, *nomusiga tegibdi, zo'rlabdi* evfemalari o'sha uyat so'zlarni va u orqali anglashiladigan tushunchani xotiradan bartaraf qil olmaydi. Shu bois ham nutqda noqulay, noxush tushunchalarni beozor formada ifodalashga moyillik borgan sayin kuchayib boraveradi, buni til egalarining tabiiy va zaruriy ehtiyoji, muayyan axloq normalari boshqaradi.

Ijtimoiy tasnif evfemizmlar mohiyatini ochishda o'ziga xos o'rin tutadi. U so'zning ma'lum ijtimoiy guruhga tegishliligi asosida amalga oshiriladi. Misol tariqasida B.A. Larin³⁴ tasnifini keltirish mumkin.

Tabu va evfemizm mavzusi ana shu mavjud ishlardan foydalanib, birinchi marta 1983-yilda oliy maktab uchun tuzilgan va nashr etilgan «O'zbek tili stilistikasi» nomli darslikda ancha keng yoritilgan. Unda mualliflar evfemizmning nutq vositasi sifatidagi ahamiyati, hatto, kontekstual va individual evfemizmlar haqida ham to'xtalib o'tganlar.

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan evfemizmlarning lingvistik tasnifi ham amalga

³³ Ергазиева Н.И. Взаимосвязи прозвищ, табу и эвфемизмов в казахском языке // Ономастика Узбекистана .- Т.: ИЯЛ АН Уз ССР. - 1989. – С. 120.

³⁴ Ларин Б.А. Об эвфемизмах. Ученые записки ЛГУ. – Л., 1961. - С.56.

oshirilgan.

O'rganilayotgan hodisaning tasnifi o'zbek tilshunolarining e'tiboridan ham chetda qolmagan. N. Ismatullayev³⁵ evfemizmlarni 5 yirik guruhga ajratadi. Bular tabu bilan bog'liq evfemizmlar, bid'at, irim qilish bilan bog'liq evfemizmlar, ma'nosi qo'pol, aytish noqulay bo'lgan so'z va iboralar o'rnida qo'llanadigan evfemizmlar, nutqiy bezaklilik, ko'tarinkilik va diniy maqsadlar uchun qo'llanadigan jargon evfemizmlar, stilistik evfemizmlardir. Semantik guruhlariga ajratilgan ifodalar tasnifi esa A.Omonturdiyev³⁶ tomonidan tadqiq qilingan ilmiy ishda o'z aksini topgan.

A.Omonturdiyev ham N.Ismatullayevning tabu va evfemizm haqidagi qarashlarini davom ettirib, 1997-yilda «Evfemik vositalarning funksional-uslubiy xususiyatlari» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasi yoqlangan, mavzu keng rejada ishlanib, «O'zbek nutqining evfemik asoslari» nomli monografiya e'lon qilingan va «Bir so'z lug'ati», «So'z qo'llash san'ati» (hamkorlikda), «O'zbek tilining qisqacha evfemik lug'ati» kabi ishlar nashr qilingan.

Bu ishlarda evfemizmning ma'no mezon, ko'lami, tasviriy ifoda obyekti, semantik-funksional tasnifi, yondosh hodisalarga, til sathiga munosabati, evolutsiyasiga doir fikrlar bayon etilgan. Biroq bunda nutqshunoslik muammolari, uning evfemikasi nazariy va amaliy jihatdan yechim topmagan.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, tabu va evfemizm ibtidoiy din, ongi o'z odamlarning g'ayritabiiy dunyoqarashi, xurofot, bid'at, rasm-rusumlar ta'sirida paydo bo'lgan eskilik qoldiqlari, bular jamiyatning keyingi taraqqiyotida madaniylashgan bosqichlarida yo'q bo'lib boradi degan qarashlar o'zini oqlamaydi.

Bundan tashqari, hali tabu va evfemizmning paydo bo'lishidagi sabab, zaruriyat va qonuniyatlar, ularning evolyutsion taraqqiyoti, tabulash asoslari; evfemizmning o'rganish obyekti, mezon va me'yori, ko'lami, chegarasi, til tizimiga munosabati; evfemizmning shakllanishida - evfemik ma'no ko'chishda metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlikning roli; evfemik ma'noning: a) omonimiya, polisemiya, sinonimiyaga munosabati; 2) nutqning badiiy vositalari (frazologiya, maqol, matal, aforizm, epitet, allegoriya kabi), yani leksik-sintaktik figuralar, ekspressiv-emotsional ifodalarga munosabati, qisqasi, uslubiy-funksional xususiyatlari, tasnifi va tasniflash asoslari, o'rganish metodlari keng ilmiy-nazariy asosda hali tadqiqotlabdir.

Ayrim manbalarda evfemik vositalar tor doirada, til fakti - lisoniy hodisa, passiv leksik

³⁵ Исмагуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дис...канд. филол. наук. – Т.: - 1963. – Б. 78.

³⁶ Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ...дисс. – Тошкент, 1977. – Б. 176.

birlik deb qaralgan (39, 120). Holbuki, evfemik hodisa tilning muayyan bir sathida faqat til birligi sifatidagina emas, nutqiy qatlam, ya'ni semantik-funksional metodga asoslangan badiiy tasviriy vositalar: trop yoki uslubiy figuralar sifatida ham tahlil qilinishi kerak.

Faktlar tilimizning evfemik qatlami evfemiologiyani uslubshunoslikning alohida sohasi sifatida o'rganishni, evfemik sinonimlar lug'ati (semantik-funksional lug'atlar) tuzish, hamda uning tematik va izohli turlarini yaratishni taqozo qiladiki, bu bugungi uslubshunoslikning dolzarb masalalaridandir.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida nutqni vazifaviy-uslubiy tasniflashda, turlarga ajratib o'rganish va mezon belgilashda, ayrim noaniqliklardan qat'iy nazar, katta yutuqlarga erishilgan, bu ularning (turlarning) evfemikasini o'rganishni osonlashtiradi, albatta. Biroq professional nutq tushunchasi, ularning tasnifi, turlari, tarmoqlari, mundariyasi, bir so'z bilan aytganda, o'rganish obyekti, funksional (vazifaviy) uslub va uning turlari (so'zlashuv, ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy)ga munosabati jiddiy tadqiqotalabdir. Holbuki, bu jarayon (birlamchi obyekt)ning o'rganilmaganligi uning evfemikasini tadqiq qilishni yana bir karra qiyinlashtiradi.

Anglashiladiki, nikoh nutqi evfemikasini o'rganish, avvalo, tabu va evfemizmning nazariy asoslarini bitiruv malakaviy ish tarzida tadqiq qilishni taqozo qiladi. Boshqacha aytganda, tabu va evfemika, xususan, professional evfemik nutqning o'rganish obyekti, mezoni, tadqiqiy, tasnifiy, tavsifiy asoslari, mustaqil soha sifatidagi o'zni keng planda (hatto umumtilshunoslikda ham) nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan emas. Zotan, har bir muammo o'zining umumnazariy asosiga ega bo'lishi kerak.

Bu manbalarda nikoh bilan bog'liq evfemizmlarga xos bo'lgan stilistik jihatlarning ayrim qirralari haqidagina so'z yuritilgan bo'lib, ularning birontasi ham ushbu turkumga xos bo'lgan elementlarning funksional-stilistik xususiyatlari tahlilini to'laligicha qamrab olgan emas.

Bitiruv malakaviy ishidaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Urganch davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'rganilayotgan "O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" nomli 2-innovatsion korporativ guruh o'rganayotgan masalaning tarkibiy qismi bo'lib, mavzu va tadqiq yo'nalishlari filologiya fakulteti ilmiy kengashlarida tasdiqlangan hamda kafedraning ilmiy ishlar rejasiga kiritilgan.

Tadqiqot maqsadi: o'zbek tili nikoh bilan bog'liq evfemizmlarni funksional-stilistik jihatdan tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Ushbu maqsadni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutildi:

– nikoh bilan bog'liq evfemizmlarning o'zbek tilida o'rganilishiga qisqacha to'xtalish, uni o'rganishga bag'ishlangan asosiy kuzatishlarga munosabat bildirish;

- mavzuga aloqador ayrim atamalarning izohiga aniqliklar kiritish;
- ayrim nikoh bilan bog‘liq evfemizm variantdorligini stilistik aspektda yoritish;
- kommunikativ vaziyatga bog‘liq holda nikoh bilan bog‘liq evfemizmlar sinonimiyasini tahlil etish va ularning faollik darajasini belgilash;
- nikoh bilan bog‘liq evfemizmlarning o‘zaro almashinuvi jarayonida amal qiladigan kommunikativ-nutqiy omillarni yoritish;
- nikoh bilan bog‘liq evfemizmlarning semantik va emotsional-ekspressiv ottenkalari shakllanishining stilistik shart-sharoitlarini aniqlash;
- nutqda til elementlari aktualizatsiyasida nikoh bilan bog‘liq evfemizmning o‘rnini belgilash;
- nikoh bilan bog‘liq evfemizmlardagi emotsional-ekspressiv ottenkalarni aniqlashda hozirgi o‘zbek adabiy tili me‘yorlariga asoslanish;
- nikoh bilan bog‘liq evfemizmning o‘zbek tili funksional-stilistik tizimidagi o‘rnini belgilash, bunda so‘zlashuv va yozma nutqdagi funksional chegaralanishlar va stilistik xoslanishlarning ekstralingvistik jihatlari e‘tiborni qaratish.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. UrDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasida elektron matnlar fondida to‘plangan ayrim monografiya, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, «Xorazm haqiqati» gazetasi va boshqa matbuot nashrlari, A.Qodiriy, A.Qahhor, Zulfiya, O.Yoqubov, E.Vohidov, A.Oripov, O‘.Hoshimov, X.Sultonov, O.Matjon, U.Azim, M.Ali, T.Murod, S.Siyoyev singari taniqli o‘zbek adiblarining asarlari, ayrim xalq dostonlari, so‘zlashuv nutqidan olingan misollar tadqiqot uchun manba va material vazifasini o‘tadi. Ayrim o‘rinlarda Xorazm shevalari vakillaridan to‘plangan materiallardan foydalanildi. Shuningdek, «O‘zbek tilining izohli lug‘ati», «O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati», «O‘zbek tilining morfem lug‘ati», «Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati», «O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati» singari leksikografik manbalardan ham foydalanildi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotning metodologik asosi dialektikaning bilish nazariyasi bo‘lib hisoblanadi. Ishda semantik-uslubiy, matniy, qiyosiy tahlil, leksikografik hamda statistik metodlardan foydalanildi.

Shuningdek, V.Vinogradov, A.Yefimov, M.Kojina, A.Kononov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Suyarov, A.Shomaqsudov, R.Qo‘ng‘urov, B.O‘rinboyev, Y.Tojiyev, M.Mukarramov, E.Qilichev, B.Yo‘ldoshev, S.Karimov, D.Boboxonova, M. Hamroyev, A.Omonturdiyev va boshqalarning shu yo‘nalishda olib borgan kuzatishlaridagi nazariy qarashlar va tadqiq metodlariga ham tayanildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

- nikoh bilan bog‘liq evfemizmlarning nafaqat leksik-grammatik xususiyatlar-ga, balki alohida stilistik xususiyatlarga ham ega ekanligi;

- ushbu stilistik xususiyatlarning namoyon bo'lishi bevosita nutqiy vaziyatga bog'liqligi va nikoh bilan bog'liq evfemizm qo'llanishida yuzaga keladigan emotsional-ekspressiv ottenkalar ularning semantik-stilistik taraqqiyotida salmoqli o'rin tutishi;

- muayyan nikoh bilan bog'liq evfemizm guruhidagi elementlarning variantlarga ega bo'lishi hamda o'zaro, ba'zan boshqa til birliklari bilan sinonimik munosabatga kirishishi ulardagi emotsional-ekspressiv ottenkalarning voqe bo'lishida asosiy imkoniyatlardan biri hisoblanishi;

- nikoh bilan bog'liq evfemizm qo'llanishidagi faollik darajasi ularning o'zbek tili uslublararo funksional chegaralanishlariga olib kelishi;

- nikoh bilan bog'liq evfemizmlarning nutqiy jarayonda namoyon bo'ladigan lingvistik imkoniyatlari ularning nafaqat lug'aviy, balki stilistik salohiyat omili ekanligi.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishda ilk bor nikoh bilan bog'liq evfemizmlarning funksional-stilistik xususiyatlari monografik yo'nalishda tadqiq etildi. Unda ayrim nikoh bilan bog'liq evfemizm variantdorligi va sinonimiyasi hamda uning kommunikativ asoslari, ularning bir sinonimik uyadagi ichki bog'lanishlari, til elementlari o'zaro almashinuvida amal qiladigan kommunikativ-nutqiy aktlar atroflicha o'rganildi. Nikoh bilan bog'liq evfemizmlarning semantik ma'no taraqqiyoti va emosional-ekspressiv ottenkalari yuzaga kelishining uslubiy shart-sharoitlari, bu imkoniyatlarni ro'yobga chiqaruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar tahlil qilindi.

Shu tarzda ishda nikoh bilan bog'liq evfemizmning variantdorlik va sinonimik xususiyatlari, funksional-stilistik tizimda tutgan o'rni aniqlandi, rasmiy, ilmiy, publitsistik, badiiy va so'zlashuv uslublaridagi stilistik o'ziga xosliklari ochib berildi.

Mazkur tadqiqot natijasida o'zbek tilidagi nikoh bilan bog'liq evfemizmning nutq jarayonida tutgan o'rni, ahamiyati, o'ziga xos kommunikativ va stilistik xususiyatlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish, bu borada muayyan ilmiy xulosalarga kelish hamda bu xulosalardan amalda foydalanishga sharoit yaratildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. O'zbek tilshunosligida nikoh bilan bog'liq evfemizmni alohida turkum sifatida qarashga sabab bo'lgan va bunda ularning asosan leksik-grammatik jihatlari inobatga olingan nazariy fikrlar ushbu so'z turkumining funksional-stilistik xususiyatlari atroflicha tahlil etilgan yangicha munosabatlar hamda xulosalar bilan to'ldirildi. Bu bilan nikoh bilan bog'liq evfemizmga xos bo'lgan nutqiy imkoniyatlar va ularning tahlili ilmiy asosga qo'yildi.

Tadqiqot natijalaridan oliy o'quv yurtlari filologik ta'lim yo'nalishida nazarda tutilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili», «O'zbek tili stilistikasi», «O'zbek nutqi madaniyati» fanlarini o'qitishda, o'zbek tili morfologiyasi va stilistikasiga oid alohida tanlov fanlarni tashkil etishda,

soʻz turkumlarining lingvistik tahliliga oid ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan til materiali evfemizmlarning izohli va boshqa filologik lugʻatlar uchun manba vazifasini ham oʻtay oladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, 70 sahifani tashkil etadi.

I BOB. OILA QURISHGA OID MUNOSABATLAR BILAN BOG‘LIQ MUOMALA EVFEMIKASI

1.1. Evfemizmlar va ularni o‘rganish masalasi

Tabu so‘zi Polineziyaning Tonga tilidan olingan bo‘lib, man etmoq, taqila moq tushunchasini anglatadi. Biroq uning Polineziya va Melaneziya shevalarida qo‘llanadigan tapu, **kapu**, **tambu** kabi dialektal sinonimlari «man etmoq» tushunchasi bilan birga, «kiyali» (zararli, ziyon etkazish kuchiga, xossasiga ega bo‘lgan narsalar) degan ma‘noni ham anglatadi.

Tabu so‘zi va tushunchasining o‘z davrida yirik territoriyani egallagan Ag‘ilshin imperiyasi tiliga kirib kelishida, so‘ngra xalqaro termin sifatida tarqalishida Yer sharini kemada uch marta aylanib chiqqan, 1768-1779-yillarda Tinch okeani ko‘pgina orollarini, Avstraliya yerlarini va aholisining urf-odatlarini tadqiq qilgan, geografik kashfiyotlar ochgan, mashhur sayyoh, etnograf olim **Djems Kuk** (Kapitan Kuk)ning xizmatlari kattadir (18, 9).

Bundan tabu tushunchasi - tabulash an‘anasi XVIII asrlarda polineziylarda kelib chiqqan ekan-da degan xulosaga kelinmaydi, albatta.

Tabuning etnogenezasini, ya‘ni qayerda, qachon paydo bo‘lganligi, qaysi urug‘, qabila yoki xalqning udumi ekanligini aytib berish amri mahol. Zotan, u ijtimoiy, tarixiy etnografik hodisa bo‘lib, til va tafakkur kabi qadimiydir. Uning ildizlari ibtidoiy ongning, yaxshilik va yomonlik tushunchalarining paydo bo‘lishi, borliqning ilohiylashtirilishi (fetishizm), ruh tushunchasining paydo bo‘lishi (animizm), ko‘chib yurishi (reinkarnatsiya - tanosux), hayvonlarga sig‘inish (animalizm) yoki umuman, totemik, mifologik tasavvurlarga borib taqaladi.

Ibtidoiy davrda, varvarlikning quyi bosqichlarida yuzaga kelib, odatga aylangan, biroq bora-bora jamiyat taraqqiyotiga g‘ov bo‘la boshlagan odamxo‘rlik (kannibalizm: kannibal – odamxo‘r), odamni qurbonlik qilish, yurak qonini ichish, qizlarni tiriklay ko‘mish, er o‘lsa, xotini va buyumlarini qo‘shib ko‘mish, yoki marhumga tegishli ashyolarni qabr ustida kuydirish (marhum o‘zi bilan narsalarini ham olib ketish ma‘nosida), keksalarni gavurgonga olib borib tashlash, o‘lgandan keyin etini quzg‘unlarga yedirish, so‘ngra suyagini ko‘mish, qonga qon, jonga jon olish; ota-bola, ona-bola, aka-singil o‘rtasidagi jinsiy aloqa, nikoh (endogamiya), ko‘p erlilik va ko‘p xotinlilik (poligamiya, geterizm), odam sotish va sotib olish kabi g‘ayritabiiy, g‘ayriinsoniy, g‘ayriahloqiy voqealiklar man etilgan (tabulashtirilgan).

Arxeologik tadqiqotlar kannibalizmni Ovroqpa va Osiyoda so‘nggi paleolit davrigacha davom etganligini ko‘rsatadi.

So‘ngroq - hayvonlarni qo‘lga o‘rgatish va chorvachilikning rivojlanishi bilan

(materiarxatdan patriarxatga o'tish davrida) ochlik, tabiat oldidagi o'zlik majbur etadigan kannibalizm yo'qola boshlagan. Lekin u bilan bog'liq irimlar, harbiy odatlar u yoki bu ko'rinishda davom etgan. Qadimgi Sharq quldorlik mamlakatlarida odamni qurbonlik qilish odati ham kannibalizmning diniy tasavvurlar bilan bog'liq shaklidir. Bu odat indeetslar orasida XV-XVI asrlarda ham uchrab turgan.

Ibtidoiy diniy tasavvurga ko'ra, odam kuchi va quvvati uning go'shti bilan birga odamga o'tadi deb qaralib, janglarda halok bo'lgan dushmanning yurak qoni ichilgan, go'shti yeyilgan. Bu shakldagi kannibalizm odat darajasigacha ko'tarilgan (146, 302).

Bu fikrni quyidagi ma'lumot yanada to'ldiradi: hozirgi toifadagi odam bundan taxminan 40-50 ming yil muqaddam vujudga kelgach, ijtimoiy hayot asta-sekin shakllana boshlagan. Ijtimoiy hayotni qaror toptirish odam ruhiy olamidagi hayvoniy his-tuyg'ularini barqaror qilish ehtiyoji zaminida har bir mintaqada o'ziga xos madaniyat, ma'naviyat vujudga kela boshlagan. Ma'naviyatni qaror toptirishning dastlabki shakli tabu - ya'ni ibtidoiy jamiyatda muayyan xatti-harakatlar va narsalarga tegish, iste'mol qilishni taqiqlashdir. Tabu jamiyatni ijtimoiy boshqarish, inson ruhini poklash, ijtimoiy nazariyani yo'lga qo'yishning tarixiy shakli bo'lgan. Masalan, uning yordamida qarilarni, xotin va bolalarni so'yib yeyish (kannibalizm) taqiqlangani, bunday yo'l tutgan odamlarga nisbatan jamoatchilik nafrati qo'zg'atilib, jazolangani, urug'dan chiqarib yuborilgani juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Natijada, keksalar urug' faoliyatini chorvachilikka yo'naltirganlar, ma'naviy-axloqiy jarayonni sog'lomlashtirganlar. Tabuni buzuvchilarga oliy jazo berilgan yoki jamoa (urug', qabila) dan haydab yuborilgan. Bu voqelik ilohiy kitoblarda ham aks etgan. «Avesto»da Iyim (Odam Ato) man etilganligiga qaramay, qora mol go'shtini, Odam Ato va Momo Havo bug'doyni («Qur'on»da), Adam va Eva «Donishmandlik daraxti»ning mevasi (olma yoki anjir)ni («Injil»da) yeganliklari uchun Allohning g'azabiga uchraganlar: behishtdan haydalib, turli jazolarga giriftor etilganlar. Yoki o'sha davr shariati tomonidan man etilganligiga qaramay, o'z tug'ishgan jufti - singlisi (Iqlima)ni xotinlikka olish uchun talashib ukasi Qobil Hobil (Iqlima Hobil bilan egizak emas)ni o'ldirganligi uchun Qobilni yer yutganligi (ba'zi manbada o'z o'g'li tomonidan o'ldirilganligi) qon-qarindoshlik (urug') ichidagi nikoh (endogamiya) man etila boshlaganligi yozma adabiyotda ham aks etgan (150, 29-32).

Ibtidoiy tabu bilan madaniylashgan jamiyatdagi tabular, voqelikka munosabat nuqtayi nazaridan, aynan bir xil emas, albatta. Birinchi holatda uzoq davom etgan obyektiv jarayonning, keyingisida ko'proq subyektiv yoki diniy qarashlar ta'siri kuchli. Masalan, islom shariati tomonidan ayollar yuzini ochib yurishi taqiqlanganligi (tabu), cho'chqa (xinzir), quzg'un (masliq) go'shtini iste'mol qilish, sharob (may, xamr), qon (odam) ichish qatiyan man etilishi

(harom qilinishi) kabi¹.

Tabulash hodisasi, ba'zi olimlar aytganidek, jamiyatning keyingi taraqqiyotida ham yo'qolib ketmaydi, o'ziga xos shakllarda yuz berib turadi. Tabu agar jamiyatning tabiiy taraqqiyot qonunlari asosida yuz bersa, ijobiy natijalarga olib keladi. Masalan, qurbonlikka odam so'yilishining taqiqlanishi - man etilishi tafakkur tarixida buyuk inqilob bo'lib, g'oya, hatto, Alloh irodasi bilan yuz berganligi samoviy kitoblarda bayon qilinadi.

Agar tabulash taraqqiyotga xizmat qilmaydigan, subyektiv yoki g'ayritabiiy maqsadlar bilan amalga oshirilsa, salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi: totalitar tuzumdagi dinlar, diniy e'tiqodlar yoki «Navro'z» kabi dunyoviy bayramlarning man etilishi va b.

Tabuni ifoda obyektiga ko'ra sotsial yoki etnografik tabu va lingvistik tabu terminlari ostida ikkiga ajratish mumkin. Birinchi holat ko'proq tarixchilar, etnograflar, ikkinchi holat lingvistlarning o'rganish obyektidir. Tashqi tomondan bular o'rtasida bog'lanish yo'qday ko'rinsa-da, aslida bunday emas: **etnografik** tabu termini ostida tarixan shakllanib odatga aylangan, biroq ma'lum sabablarga ko'ra man etilgan ijtimoiy harakat, voqelik yoki odat tushunilsa, lingvistik tabu termini ostida ma'lum sabablarga ko'ra biror voqelik yoki predmetning o'zi emas, uning nomini to'g'ridan-to'g'ri tilga olish man etiladi. Bundan tashqari, ba'zi hollarda etnografik tabu lingvistik tabuning shakllanishiga bevosita sabab ham bo'ladi. Masalan, cho'chqa go'shti yeyish, aroq ichish odatining islomda man etilishi (etnografik tabu) bilan bog'liq voqelik nomlari ham to'g'ridan-to'g'ri tilga olina bermagan. Cho'chqa so'zi o'rnida qora kiyik, oq qo'y; aroq so'zi o'rnida ichimlik, shisha, oq, zahri qotil, og'u, haligi evfemalari qo'llanilgan. Ayollar yuzi ochiq yurishining man etilishi (etnografik tabu) bilan bog'liq «yuzi ochiq» yoki «ochiq» tushunchasining u yopiq, u pardada, u hijobda, u chimmatta, u paranjida, u peshbandda, u ro'molda kabi evfemalari yuzaga kelgan. Hattoki, yovvoyilikning ibtidoiy davrlarida odamxo'r insonlar tilidagi bugun bitta odam o'ldirdik, bitta odam so'ydik, go'shtini edik, qonini ichdik mazmunidagi ochiq tushunchalar evfemalashtirilmagan, bunga zarurat bo'lmagan deb faraz qilganimizda ham, bu jarayon kannibalizm man etilgan (etnografik tabu)dan keyingi davrlarda evfemalashtirilgan bo'lishi kerak. Garchi bunda evfemik vositalar qo'llanganligini muayyan matn - manba asosida aytish imkoniyatiga ega bo'lmasak, hozirgi tildagi qonxo'r, og'zidan qon hidi keladi, og'zi qon, qon yalagan, qonini to'kkan; qoningni ichaman, qoningni simiraman, boshiga yetdi, go'shtingni yeyman, boshini yedi, yuragingni kavoblab yeyman, jonga jon, qonga qon olaman kabi vositalar odam o'ldirmoq, so'ymoq tushunchalarining evfemik signafikatori, so'ngroq yuzaga kelgan yo'qotmoq, gumdon qilmoq, nobud qilmoq, asfalasofilinga jo'natmoq kabi vositalar esa nisbatan evfemadir.

Urug'chilik tuzumida urug' a'zolaridan biri o'ldirilsa, o'ldirgan kishi yoki uning

urug‘idan biror kishi o‘ldirilishi shart bo‘lgan. Bunda o‘ldirmoq tushunchasi o‘rnida o‘limga-o‘lim, qonga-qon, jonga-jon olmoq (rus tilida ham smert za smert, krov za krov) evfemik signifikatori qo‘llanilgan. Bu odat (o‘ldirganni o‘ldirish odati) man etilgach (etnografik tabu), o‘limga-o‘lim emas, o‘limga xun to‘lamoq (odam bahosini to‘lash), badal to‘lamoq, tovon to‘lamoq nisbiy evfemalari shakllangan.

Urug‘ ichida nikoh man etilgach (etnografik tabu), qiz boshqa urug‘dan olingan, hatto olib qochib kelingan (hozirgi «Kelin olib qochdi» shundan qolgan). Kelin atamasi ham aslida kelgindi (kel+in) so‘zining e‘zozlangan - evfemiklashgan holati. Ruscha neveta (ne+vesta - nevesti) so‘zi zaminida ham aslida kelgindi tushunchasi kelgindi emas, e‘zozlanib (ne priezjaya), o‘zimizniki tarzida evfemalashtirilgan. Boshqa bir urug‘ yoki qabila xonadoniga kelgan qiz (kelgindi) shu xonadon a‘zolari bilan teng huquqli bo‘lmagan (aslida kelinlarning tong qorong‘usida turishi, hovli supurishi, choy qo‘yib berishi, ta‘zim qilishi shundan qolgan), erining, ota-onasi va aqrabolarining nomlarini tilga olishi man etilgan (tabu)ki, bu holat kelin nutqida simvolik evfemaning («kelin tili»ning) shakllanishiga sabab bo‘lgan (hozirgi kelinlar nutqidagi kichkina bola, kichik qiz, sariq sochli qiz, mulla aka, mudir aka kabi evfemik murojaatlarni eslang).

Quldorlik tuzumi maydonga kelgach, qul va quldorning asl nomi (masalan, Asqar, Salim)dan tashqari, ularning sotsial atamalari (quldor, qul) ham hech kimga bog‘liq bo‘lmagan holda, u yoki bu darajada tabulashtirilgan - to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmagan. Natijada quldor uchun xo‘ja, xujayin, sohib, senor, ser, shef; qul uchun xizmatkor, mardikor, chorakor, xodim, cho‘ri, oqsoch, joriya kabi nisbiy evfemik atamalar yuzaga kelgan. Tabulashtirish va evfema qo‘llash qonuniyatlari jamiyatning barcha taraqqiyot bosqichlarida ham amal qilgan.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, tabu termini bir-biri bilan uzviy bog‘langan uch (ba‘zan ikki) bosqichli tushuncha: 1) voqelik (masalan, ko‘knor eyish, aroq ichish, o‘g‘irlik qilish odati)ni; 2) voqelik nomi - subyekti (ko‘knor, aroq, o‘g‘ri)ni ochiq ayta berishni man etish; 3) evfema qo‘llash zarurati: Bunda etnografik tabu birlamchi hodisa bo‘lib: a) lingvistik tabuning; b) evfemaning shakllanishida asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tabu aslida etnografik tushuncha bo‘lsa-da, keyinchalik lingvistik termin sifatida ham qo‘llanila boshlangan. Shu sabab professor Adil Ahmetov ham etnografik va lingvistik tabu terminlarini qo‘llagan (18). Etnografik tabu, asosan, tarixiy-etnografik voqeliklarni, lingvistik tabu, asosan, til hodisalarini, shu bilan bog‘liq shakllangan evfemiologiya - uslubshunoslikni o‘rganadi. Bu uchala soha bir-biridan uzilgan, alohida sohalar emas, ular tilshunoslikning mustaqil sohasi bo‘lmish etnolingvistikaning o‘rganish obyektidir. Bu fan - etnografiya, lingvistika va nutqshunoslikning shunchaki qo‘shilmasi emas, balki yangi shakllangan yaxlit

obyekt - bir butun fanning fazalaridir. Zotan, lingvistik tabu zaminida xalqlar tarixi, urf-odati, rasm-rusumi, axloq-odobi, xulq-atvori, udumlari, ruhiy-psixologik, mifologik e'tiqodi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi (mentaliteti) mujassam.

Har qanday etnografik tabu - etnografik hodisadir. Masalan, sovchi qo'yish, unashtirish udumi (etnografik hodisa) munosabati bilan sovchi nutqi tabulashtiriladi (qizingiz Mehrinisoni o'g'lim Toshtemirga xotinlikka bering deyilmaydi, albatta). Tushni ta'birlash - yo'llash (etnografik hodisa) vaqtida, qo'rqinchli bo'lsa, tabulashtiriladi (xonadoningizda o'lim bo'ladi deyilmaydi, albatta). Yaxshi tush bo'lsa, tabulashtirilmaydi. Biroq har qanday etnografik hodisa tabuni keltirib chiqarmaydi. Masalan, to'y bilan bog'liq «un sepish», «kampir o'ldi», «oyoq bosish», «oyna ko'rsatish», «soch siypatish», «olovdan o'tkazish» kabi etnografik udumlar nomining o'zi qo'llanilaveradi.

Anglashiladiki, etnolingvist ma'lum darajada etnograf bo'lishi mumkin, biroq hamma etnograf ham lingvist bo'la bermaydi. Zotan, ba'zi yirik etnograflarning asarlarida tabu bilan bog'liq ma'lumot yoki faktlarga duch ham kelmaymiz (53).

Demak, etnolingvistika fani tabu bilan bog'liq bo'lgan etnografik materialni o'rganadi.

Etnolingvistikada etnografiya va lingvistikagina emas, ilmning sotsiolingvistik, etimologik, toponimik, arxeologik, antropologik, etik-estetik, etnomadaniyat, notiqlik, teologik kabi sohalar ham uchraydi.

Tabu va evfemiya etnolingvistikaning o'rganish obyekti ekanligi va bu fan haqidagi fikrlar dastlab I.T.Gerder (XVIII asr) va V.Gumbold (XIX asrning boshi)dan boshlangani bilan, u XIX asr oxiri va XX asr boshlarida fan sifatida shakllana boshlagan. Shu asosda Amerika yerli xalqlari madaniyatini urf-odatlarini tadqiq qilgan etnograf olim F.Boas, lingvist, etnograf E.Sepir va ularning izdoshi B.Uorflar davom ettirgan. Bundan tashqari, N.I.Tolstoyning etnolingvistikaga bag'ishlangan qator ishlari diqqatga sazavor (112, 397-405).

1.2. Sovchi nutqi evfemikasi

Oila qurish bilan bog'liq jarayon qadimdan muayyan tartib (sovchi qo'yish yoki odam qo'yish, unashtirish, to'y qilish kabi)ga ega. Oila qurish bilan birga paydo bo'lgan, oila ma'naviyati, sha'ni, zebziynati, izzat-ikromi, diniy e'tiqodi kabi an'analar bilan bog'liq shakllangan ko'pgina urf-odatlar, chunonchi, sovchi qo'yish udumi ham sho'ro davrida, afsuski, buzildi. Yoshlarning o'zaro kelishuvi (ba'zan ko'cha-kuylarda)ga ko'ra (ba'zan ota-ona sovchiligida, ba'zan sovchisiz, ota-ona roziligisiz) oila qurildi. Shu sababdan bo'lsa kerak, sho'roviy adabiyotlarda oila, nikoh, sovchilik bilan bog'liq nutqiy vositalar, ularning evfemik mumtoz namunalari uqadar kuzatilmaydi.

Sovchilik aslida davlat diplomatiyasiga o'xshaydi, hatto undan ham nozik ish. Diplomat davlat nomidan gapiradi, talab (ba'zan ultimatum) qo'yadi. Sovchi birovning uyiga (ot savdosiga,

suyunchi olishga, suhbatlashishga emas, albatta) bolasini - qizini olishga boradi. Bu jarayon har qanday odamni sukut saqlash, o'ylashga, gapni nimadan boshlash, nozik iboralar qo'llashga, ehtiyot bo'lib so'zlashga, o'ylab javob berishga majbur qiladi. Shuning uchun ham sovchilar gapga chechan, gapdon, suxandon, so'zamol, dono, zukko, topqir, ziyrak, donishmand, bosiq, psixolog, ayni zamonda, ko'pni ko'rgan, oq-qorani tanigan, e'tiborli, bo'obro' kishilardan tanlangan.

Umuman, oila qurishda sovchining notiqlik mahorati katta rol o'ynaydi. Masalan, sovchi qizning ota-onasiga: Biz sovchimiz. Sizning bir qizingiz bor ekan. Kuyov bo'lmish (yoki falonchiyevning o'g'li falonchi)ga (shu qizingizni) bering. U ko'p vaqtdan beri qizingiz bilan yurar ekan. Ularni to'y qilib, er-xotin qilib qo'shib qo'yishdan boshqa chora yo'q kabi; yoki kuyov bo'lmishning otasini, mansab-martabasi, davlat-u savlati, qasri, mashinalarini ko'klarga ko'tarib: Qizingizni bersangiz shunday xonadonga berasiz-da, bundan yaxshi joyni topolmaysiz (Bozor savdosini eslatuvchi). Qizingiz uyda o'tirib qoladi (agar qizning otasi tanish bo'lsa). Boshingizni g'alvaga qo'yib nima qilasiz? Qizingizni boshingizga yostiq qilasizmi, qari qiz bo'lib qoladi kabi salbiy ta'sir qiluvchi, qiz xonadonining izzat-nafsiga teguvchi disfemik nutq egalari (sovchilar) ham borki, bu - noxush voqealarning yuzaga kelishiga, qosh qo'yaman deb ko'z chiqarishga sabab bo'ladi.

Tog'ay Murodning «Oydinda yurgan odamlar» asarida Oymomo (yetim qiz) uchun akasi Eson qassobning uyiga kelgan sovchilarning biri (Eson qassob bilan tanish) choydan keyin, birdaniga: Singlingni boshiga baxt qushi qo'ndi, uchirib yuborma (yaxshi kuyov yoki er topildi, singlingni ber tushunchasining evfemik ifodasi) degan gapiga Eson qassob: Aslini bilmay so'z demaslar, Naslini bilmay qiz bermaslar maqoli bilan o'rinli javob beradi (219-b.).

Ha yoki yo'q javobini ololmagan sovchilar yigitning kimligi, asli-naslini evfemik vositalar bilan tavsiflagach, Eson qassob: «Men bir nima deyolmayman. Og'ayni, jamoa bor, qiz boqqan yangasi bor. Yana bir kelinglar, maslahatlashib olaylik»,-deydiki (221-6.), «ha», «mayli», «roziman» tushunchalariga moyillikning evfemik ifodasi namoyon bo'lgan.

Sovchining nutqiy faoliyatida ikki bosqich bor: 1) sovchi qizning otasinikiga borganda, sovchi ekanligini iloji boricha ochiq, ya'ni gap bilan (biz sovchimiz, qizingizga keldik shakllarida) emas, psixologik signallar, sukut saqlash kabi harakatlar, sovchilikni anglatuvchi qullikka keldik, eshik yoki hovli supurishga keldik, qarindosh bo'lish uchun keldik, bir farzandingizning qo'lini so'rab keldik, bir bolangizni bizlarga farzandlikka berarsiz deb keldik, bir qizimiz (yoki farzandimiz) ikkita bo'lsin deb keldik, bizning farzandimiz sizga ham o'g'il bo'lsin deb keldik, chaqirilmagan (kutilmagan) mehmon bo'lib keldik kabi an'anaviy evfemik gaplar orqali anglatiladi: Sarija og'a xayrli ishga qo'l urib, Marjonbiynikiga «qullikka» keldi. Shu tariqa Jang'iloq Boboquliga qalliq bo'lib tushdi (N.Ergashev, «O'zanbiy avlodlari», 103-b.).

2) sovchiligi aniq bo'lgach, asosiy maqsadga o'tiladi. O'zi kelgan xonadon haqida qisqa

va kamtarona tavsif beradi. Bunda sovchi bo‘lib kelgan oilaning tagli-tubli, ko‘rgan-kechirgan, ziyoli, madaniyatli, ta‘lim-tarbiyali, mo‘min-qobil, e‘tiborli, izzat-ikromli, axloq-odobli, mehnatkash, halol, pok, hamma havas qiladigan, ibratli oila ekanligi ta‘kidlanadi.

Endi A.Qodiriyning «O‘tgan kunlar» romanidan sovchilikning axloq-odob normasi, sovchi nutqining mumtoz, noyob namunasi aks etgan quyidagi matnni keltiraylik: Qutidorning uyiga sovchi bo‘lib kelgan Ziyo shohichi bilan Hasanali uzoq vaqt gap boshlay olmaydi va nihoyat gap asnosida Qutidorning: -Bek salomatmi? (Qutidor bungacha Otabek bilan uchrashgan, Otabek uyida bir marta mehmon ham bo‘lgan) degan savoliga Ziyo aka so‘z o‘nqovi kelganini payqab:

- Bizning sizga chaqirilmagan mehmon bo‘lishimiz ham Otabekning sog‘ligi uchundir, - deydi.

Qutidor bu javobdan bir narsa tushuna olmadi va shuning uchun ham qaytalab so‘radi:

- Otabek sog‘mi?

- Bu kungacha Otabek salomat, - dedi Ziyo aka salmoqlab, ammo bekning bundan keyingi sog‘ligi sizning qo‘lingizga qolganga o‘xshaydir.

Qutidor yana tushuna olmay taajjub bilan mehmonlarga qarab oldi.

- Tushunolmadim...

- Ya‘ni Otabek bu kungacha salomat, - dedi Ziyo aks yana. -Ammo bundan keyingi sog‘ligi sizning qo‘lingizda...

- Mening qo‘limda?

- Sizning ixtiyoringizda.

- Otabek kabi bir yigitning sog‘ligi har bir aqlli kishi uchun maqsad bo‘lsa ham,- dedi taajjub bilan Qutidor, - lekin so‘zingizning shunisi qiziqdirkim, bir yigitning sog‘ligi qanday qilib ikkinchi bir kishining ixtiyorida bo‘lsin.

Ziyo aka boyagi vaziyatni buzmadi:

- Ajablanmangiz, o‘rtoq, dedi, - Bekning bundan keyingi sog‘ligi sizning ixtiyoringizda; bu o‘yin emas-to‘g‘ri gap (45-b.).

- Muhabbat degan narsa juda oz kishilarga nasib etadigan bir durri bebahodir, - dedi Ziyo aka. - Qadrdomimiz Yusufbek hojining o‘g‘li Otabek bir necha kunlardan buyon pinhoni bir dard bilan og‘rir... Shariat ishiga sharm yo‘q deydilar, o‘rtoq, agarchi siz bilan menga birmuncha og‘irroq bo‘lsa ham yana so‘zlab o‘tishga hojat bor: kunlardan bir kun taqdir shamoli yuradir-da, bir kimsaning iffat pardasi ostida o‘ltirgan qizining yuzidagi niqobini ko‘tarib, ikkinchi tomondan bizning Otabekni shu afifaga ro‘baro‘ qiladir. Shu daqiqadan boshlab Bekda u afifaga nisbatan chin bir ishq tug‘iladi... Garchi muddao kun kabi oshkor bo‘lgan bo‘lsa ham

nima uchundir Qutidor yana o'zini gag'ofilga solib so'radi:

- U kimning qizi emish?

Ziyo shohichi:

- Sizning' karimangiz, - dedi

Ziyo shohichi gapida davom etdi:

- Biz o'zimizning bu kelishimizda sizning uchun dunyog'a arzig'uliy bir o'g'il hadiya etganimizdek, inshoolloh, qaytishimizda ham Otabek uchun ham mujassamai iffat bo'lgan bir rafiqqa tuhfa qilarmiz (48-b.).

Qutidor ham o'zining og'ziga tikilib turuvchi ikki kishiga qanday javob aytish uchun garangsigan edi.

- Otabek kabi bir yigitni o'g'il qilish sharafiga noil bo'la olsam o'zimni eng baxtli otalardan sanar edim, - dedi nihoyat Qutidor (47-b.).

Bir qarashda matnda Qutidorning gap asnosida: - Bek salomatmi? degan bir so'rog'iga sovchilar besh marta, bir xil takroriy gaplar bilan javob berganday tuyuladi. Aslida esa sovchilar Qutidorning bir savoli orqali uning e'tiborini Otabek sog'ligini qayta-qayta so'rashga tortib, shu bilan bog'liq o'zlari ham tagdor, tinglovchi e'tiborini o'ziga jalb qiladigan, ishoraviy-evfemik javoblar bilan muddao - maqsadni asta-sekin oshkor qilishga erishganlar. Masalan, Qutidorning yuqoridagi «bek salomatmi?» degan savoliga mehmonlar: «ha» yoki «yo'q», «sog'» yoki «nosog'» deb emas, - Bizning sizga chaqirilmagan mehmon bo'lishimiz ham Otabekning sog'ligi uchundir ishoraviy evfemik vositasini qo'llaydilarki, bu: 1) biz Otabekning sovchisimiz (chaqirilmagan mehmon); 2) uning sog'ligi Sizning qizingiz Kumush bilan bog'liq tushunchalariga ishoradir. Keyingi dialoglarda ham Otabekning sog'ligi (sizning qo'lingizda..., ixtiyoringizda... kabi evfemik ishoralar orqali) Otabekning Kumushga uylanishi bilan bog'liq ekanligi ayon bo'lib boradi. Sovchilar Qutidorga: Otabek uyingizda mehmondorchilikda ham bo'lgan ekan, qizingizni ko'rib (qizingiz ham Otabekni ko'rib) oshiq bo'lib, sevishib qolgan ekan (Bunday bayon odob doirasidan tashqari, albatta) deyish o'rniga: «Kunlardan bir kun taqdir shamoli yuradir-da, bir kimsaning iffat pardasi ostida o'lturgan qizining yuzidagi niqobini ko'tarib, ikkinchi tomondan, bizning Otabekni shu affaga ro'baro' qilibdir. Shu daqiqadan boshlab Bekda shu affaga nisbatan chin bir ishq tug'ilubdur» evfemasini juda o'rinni qo'llaganlar.

Bu matnda fikr mazmunan II shaxsga qaratilgan bo'lishiga qaramay, gap shakli III shaxsga ko'chirilib bayon etilgan: Sovchilar Qutidorga: Sizning bir Kumush degan qizingiz bor ekan deyish o'rnida «Bir kimsa (Qutidor)ning bir affasi (iffatli, Kumush degan qizingiz) bor ekan shaklidagi original evfemani qo'llaganlar.

Yoki Qutidorning: - U kimning qizi emish? savoliga sovchilar: Sizning qizingiz, Kumush deyish o'rnida Sizning karimangiz evfemasi bilan javob bergan. Oxirida sovchilar Qutidorga: Mana, Sizga kuyov topdik deyish o'rnida Sizga o'g'il hadiya etdik; Otabekka qiz yoki xotin topdik deyish o'rnida Otabekka mujassami iffat bo'lgan bir rafiqqa tuhfa qildik evfemalarini qo'llaganlar. Mayli, qizimizni beraman, Otabekni kuyov qilaman deyish o'rnida Qutidor: - Otabek kabi bir yigitni o'g'il qilish sharafiga noil bo'la olsam, o'zimni eng baxtlik otalardan sanar edim deydi, bu A.Qodiriyning buyuk so'z san'atkori ekanligidan dalolatdir.

Sovchi faoliyati qiz tomonning roziligini olishdan iborat. Rozilik esa bo'пти, mayli, juda yaxshi, xo'p, rozimiz, qizimizni beramiz tarzida emas, odatda (xususan, birinchi marta borgan sovchilarga) urug'-og'aynilar bilan bir maslahatlashib ko'raylik, o'ylashib ko'raylik, onasidan yoki qizimizdan ham so'rab ko'raylik tarzida namoyon bo'ladi. Chunonchi, qizimizni berishga rozimiz tushunchasi Qutidorning «...Ammo bu to'g'ridagi ixtiyor o'z qo'limda emas, ko'krak suti berib o'stirgan xotin ham bor. Bu to'g'rida uning bilan ham kengashishim lozimdir» (47-b.); Eson qassobning (yuqorida keltirilgan) «Men hozir bir nima deya olmayman, og'ayni, jamoa bor, qiz boqqan yangasi bor, bir kelinglar, maslahatlashib olaylik» (T.M., «Oydinda yurgan odamlar», 221-b.) tarzidagi yumshoq nutqlarida o'z ifodasini topgan. Qizning roziligi ham «bo'пти», «tegaman» tarzida emas, ko'pincha, sukut saqlash yo'li bilan namoyon bo'ladi. Bu jarayon yangasi (boqib olgan) bilan Oymomo o'rtasida quyidagicha kechgan: Yanga qayinsinglisi qo'yniga qo'l soladi.

- Sen nima deysan?

- Kimga nima deyman?

- Talmovsirama. Biror nima de. Sovchi keпти.

- Kimga?

- Menga bo'larmidi senga-da.

- Eb-ey, men sizga nima qildim? Boring-e! Oymomo ters bo'ldi. Bilq-bilq qaynayotgan qozonga yuz berdi. Kosov bilan o'choq kovladi.

- Uyalsang-uyalmasang, bu barimizning boshimizda bor savdo, - dedi yanga, -biz ham sendayin uyalib edik. Mana oqibati jiyaning sho'rpillatib-sho'rpillatib emib o'tiribdi... Menga qara, bugun, bugun bo'lmasa ertaga baribir kelin bo'lasan. Joyi chiqib turibdi, xo'p deya ber. Qoplon ikki elkasiga uy tiksa bo'ladigan yigit.

- Men undaychikin odamni bilmayman...

- Endi bilasan-da. Aytganimdan qolma. Chiroying borida chinoringni top.

Bu dialogik nutq - hamma qizlar ham erga tegadi, xotin bo'ladi, tug'adi, ona bo'ladi, bola emizadi, katta qiladi. Agar hozir erga tegmasang (chinoringni topmasang) ersiz, qari qiz bo'lib qolib ketasan. Qoplon juda zo'r yigit kabi ochiq yoki disfemik axborotning evfemik matnidir.

Yoki yangasi senga sovchi kepti deganda, Oymomoning: «Eb-ey, men sizga nima qildim? Boring-e!»; Qoplon nomi tilga olinganda: «Men undaychikin odamni bilmayman» evfemik e'tirozlarida qizning so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan ichki bir emotsional tuyg'ular, ichki bir rozilik ifodalangan.

Oymomo cho'qqa tikilish ko'yi o'tira berdi. Cho'g' Oymomo yuzlaridan, Oymomo yuzlari cho'g'dan qolishmadi. Yanga bo'lmish kenjasini Oymomoga berdi.

- Bo'ldi, sukut - alomati rizo, - dedi. Yanga og'ayni-jamoa qoshiga bordi. Oymomo sukutini aytdi. Sovchilar dasturxonga o'ralmish nonni o'rtaga qo'ydi (nonni o'rtaga qo'ydi - unashtirildi tushunchasining evfemik ifodasi).

Anglashiladiki, Oymomoning yuzlari qizarib, uzoq vaqt cho'qqa tikilib, sukut saqlab o'tiraverishi - uning roziman, tegaman degan xulosaga kelganligidan dalolatdir.

Sovchilik bilan bog'liq begona, hatto dushman xonadon vakillari nutqi ham o'ziga xos evfemik ifodalarga ega. Boysarining uyiga sovchi bo'lib kelgan Surxayl dedi:

Qozonda qaynagan shirboz go'shmidi, Shul qizning agar boshi bo'shmidi, Boshi bo'shmi deyin, sendan so'rayin, Kelin qilib biror ro'mol o'rayin, Qorajonga otashtirib berayin.

Qizingizni boshida taralغان sochi,
Qorajon ham yigitlarning me'roji,
Qorajonning vaqtin xushlab turayin,
Qizingman ikkovin birga qilayin,
Ikkovi ham o'ynab yursin har kecha,
Qizing bilan ro'zg'or qilsin o'lgancha («Alpomish», 96-b.).

Ushbu matnda boshi bo'shmi - ersizmi; otashtirmoq - xotinlikka olmoq; yigitlar me'roji - yuqori, eng oliysi, zo'ri; qizingman birga qilayin, ro'zg'or qilsin - bir umr er-xotin bo'lsin tushunchalarining evfemik vositasidir.

Boyvicha (Barchinning onasi) dedi: Qozonda qaynagan shirvoz go'sh emas, To'rd a o'tirgan qizning boshi bo'sh emas, Qizim domod bobosining uliga, Mol bergani Boysun-Qo'ng'iro't elida. ...

Har kim o'z elida bekmi, to'rami Qarchig'ay qarg'aga yemtik berami (98-b.).

Ushbu matnda to'rd a o'tirgan qiz - Barchinoy, qizim - domod bobosining uliga - barchinoy amakisi Boybo'ring o'g'li Alpomishning qallic'i, mol bergan - qalin bergan ham Alpomish Barchinoyni hech qachon Qorajonga bermaydi-ku! tushunchalarining evfemik vositasidir.

Sovchi odatda, har qanday vaziyatda ham kimligi (mavqei)dan qat'iy nazar, dabdaba, tazyiq, ultimatum ohangida muomala qilmasligi (yuqoridagi Surxayl kampir kabi), qiz tomon

ham axloq-odob qoidasiga rioya qilishi (qudachilik - ming yilchilik), rad javob ham haqoratomuz, kamsituvchi, qo‘pol gaplar (unday xonadonga beradigan qizimiz yo‘q, erda qolgan (ko‘chada qolgan) qizimiz yo‘q, ular bizning tengimiz emas kabi) bilan emas, balki **kechikdilaringiz, nasib etmagan ekan**, yoki **qizimizning boshi bo‘sh emas, boshi ochiq emas, boshi bog‘liq, baxshidasi, govrabaxshi, beshikkertisi¹, etakyirtishi, sirg‘asoldisi, unashtirilgani, atashdirilgani, nomzod qilingani, fotihaxondasi, non sindirilgani bor kabi qadimdan qo‘llanib kelingan, mumtoz, evfemik atamalar; yoki vaqt erta, qizimiz hali yosh, o‘qishi kerak kabi zamonaviy evfemik ifodalar orqali berilishi kerak. Bunday muomala folklor tilida, chunonchi, tog‘ chorvadorlari aholisi nutqida faol qo‘llaniladi: Vazir Hasanxon o‘limi oldidan: «Ey o‘g‘lim, anglab qo‘ygilkim, podshohning qizi sening birla govrabaxshdir. G‘arib aydi: E, Shohsanam mening baxshidam ekan-da» (42, 93). Shohimardon piri Hakimbekka Oybarchini «beshikkerti» qildi («Alpomish», 13-b.). Bu yerda «beshikkerti»ni buzish dahshatli nomus hisoblanardi (P.Qod., «Qora ko‘zlar», 33-b.). Hulkar o‘n yasharligida Xolbekka «fotiha» qilib qo‘yilgan edi. (P.Qod., «Qora ko‘zlar», 15-b.). Norgulimizning «atashtirilgan»iga olti oy to‘ldi («Chag‘oniyon», 2003, 17- iyun). Mening sevgan yorimning Naylay «boshi bog‘liq» ekan (qo‘shiq). Bu mojarolarga mening «boshim ochiq»ligi sabab bo‘ldi («Oila va jamiyat», 1996, 16-mart). Azizlar, ogoh emas ekansizlar-da, ming afsus, kechikdilaringiz, jigarporamizga «non sindirilgan», («Chag‘oniyon», 2002, 5-sent.),**

Yana misollar: O‘rtada bir andisha bor, u ham bo‘lsa yoshliklarida etak yirtish qilib qo‘yganimiz, xolos (M.I., «Farg‘ona tong otguncha», 76-b.). Bizlar ham «Qizimiz yosh, qolaversa bir yigitga «beshikkerti» qilingan», deb ipini uzib yubordik³⁷.

Odatda sovchilarning qaytishi, ya‘ni natija sabrsizlik bilan kutiladi. Hattoki ba‘zan sovchiga berilishi kerak bo‘lgan bo‘ldimi-bo‘lmadimi, ko‘ndimi-ko‘nmadimi, ha dedimi-yo‘q dedimi, nima dedi kabi odatiy savollar (tabulashtirilib) o‘rnida ko‘p hollarda, bo‘rimi-tulkimi evfemasi qo‘llaniladi: Sovchilikdan qaytgan Surxayil kampirga Qorajon: Qalay, qalay ena? Bo‘ri bo‘p kelayapsizmi, tulki bo‘p kelayapsizmi? - dedi. Enasi aytdi: Men borgan yerdan ham tulki bo‘lamanmi, bo‘ri bo‘p kelayotibman. Shunda: Ena, bo‘ri bo‘lganingizdan gapir, -dedi Qorajon («Alpomish», 99-b.).

Bolalarni tug‘ilmasdan yoki tug‘ilgandan keyin unashtirib qo‘yish («beshikkerti») odati bo‘lgan. Bunda bo‘lg‘usi qudalar bir-birlariga so‘z beradi yoki qiz bola tug‘ilsa, o‘g‘il bolasi bor qutlug‘ bo‘lsinga kelishganda, er kishi do‘ppisi bilan xotin kishi bo‘lsa, ro‘moli bilan irimiga uyni supuradi. Qiz tomon unasa, qizcha-ning boshiga ro‘molcha tang‘ib yoki bo‘yniga marjon taqib

³⁷M., «Cho‘ri», 26-b.

ketadi. Ba'zan chaqaloq ko'ylakchasini etagidan ozgina yirtib qo'yadilar³⁸

Yoki sovchilarning kiyim (sarp) kiyib qaytishlari ham qiz tomonning roziligini anglatuvchi evfemik alomatdir. Agar sovchi ayollar (ayollar ham sovchilikka - «qiz ko'rdi»ga borganlar) tovoqlari buzilmay qaytarilsa, qiz tomonning rozi emasligi - ko'nmaganligi, aksincha, tovoqlari bo'shatilib, ichiga bir juft non, oqlik (oq mato, ro'mol) solib qaytarilgan bo'lsa, bu - rozilik, ko'nganlik tushunchasining evfemik ramzi hisoblangan. Bu odat hozir ham mavjud.

Ma'lumki, sovchi «bo'ri» bo'lib qaytgach, yigit va qizning bo'lajak er-xotinligi rasmiylashtiriladi. Mana shu jarayon unashirmoq, patir ushatmoq, non sindirmoq, ko'p ma'lumi qilmoq, fотиha qilmoq, nomzod qilmoq kabi evfemik iboralar bilan ataladi.

Etnograf-tilshunos A.Juraboyev respublikamizning ko'pgina joylarida unashirish bilan bog'liq bu udum xom tugun, xom oshi, xamir uchidan patir, kichik savat, kichik patir kabi iboralar bilan atalishini ta'kidlaydiki, bu atamalar ham berilajak mol-pul, qalinning boshlanishi tushunchasiga nisbatan etnografik-evfemik vositalardir. Shu bilan birga muallif urf-odat nomlarini o'rganish etnografik, izohli lug'atlar tuzish uchun qimmatli material bo'la olishni ham uqtirgan (43, 60-63).

Shuni ham aytish kerakki, XIX asrning oxirlariga qadar Surxondaryo tog' chorvador qishloqlarida bo'lajak kuyov uchun (sovchilar orqali) turli an'anaviy shartlar - ot chopish, ot ustidan sakrab o'tish, kurash (olish, chavki), kunda (to'nka) yorish, o'roq (o't) o'rish, daraxt (archa, pista, zarang, chinor kabi) kesish kabi amallarni bajarish udumi saqlangan. Bunda yigitning jismoniy sog'lomligi, aql - farosati, hayotga tayyorgarligi sinab ko'rilgan («Hazor savol»dagi Malikaning ming bir savoli, «Alpomish»dagi Barchinoyning to'rt sharti kabi). Shu udumlar bilan bog'liq xalq orasida «**Kunda yormay, yorsiz qolgan**» (to'nka yorolmaganligidan sevgilisidan judo bo'lgan ma'nosida); «**Komakni tor olgan**» (daraxtni risolabop kesolmay, sevgilisidan judo bo'lgan ma'nosida); «**Oyog'i uzangiga yetmagan, qo'yniga yarim non ketmagan**» (otdan sakray olmagan, noshud, aqlan, jismonan noraso, palag'da yig'ib ma'nosida) kabi iboralar mavjudki, bular hozir ham qavs ichida izohlangandek, omadsizlik, baxtsizlik kabi noxush voqeliklarning evfemik ramzi sifatida qo'llaniladi.

Qizning uyiga sovchilar borib qiz tomonning roziligini olgach, ikki yosh bir-biriga unashtiriladi. O'zbek tilida unashirmoq fe'li ma'nosini ifodalovchi ellikka yaqin so'zni aniqladik: **Aytilmoq.** Meni hech narsadan xabarim yo'q, yoshligimda qo'shnimizning Mahmud ismli o'g'liga aytilgan ekanman («Saodat», 1996, №2, 13-b.). **Atalmoq.** Men boshqa yigitga atalganman («Ayol va zamon», 1998, 4-may). **Bag'ishla(n)moq.** Qizini bizning o'g'limizga bag'ishlagan ekan

³⁸M.Alaviya. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. -T.: Fan, 1976. -160-b.

(«Temurnoma», 81-b.). **Beshikkerti qilinmoq.** Ular tug‘ilishlari bilanoq beshikkerti qilingan edilar («Yosh kuch», 1997, №5, 41-b.).

Boshini bog‘lamoq. O‘g‘lim, bugunoq boshingni bog‘lab kelamiz (E.Turon, «Bu tog‘lar ulug‘ tog‘lar», 112-b.). **Narzi niyoz qilmoq.** Qiz bola narzi niyoz qilingandan keyin birovniki bo‘ladi-da (N.A., «Qitig‘i o‘lmagan qiz», 73-b.).

Nasibasi-nasibasiga qo‘shilmoq. Nasibamiz nasibamizga qo‘shilgan ushbu kun - hayotimda unutilmas voqea bo‘ldi («Oila va jamiyat», 1998,16-dek.). **Nishona bo‘lmoq.** Ona uyi odamga to‘ldi, U Sobirga nishona bo‘ldi (H.O.). **Non sindirmoq.** Birinchidan, non sindirgandan keyin kelinposhsha kuyovto‘raning haloli bo‘ladimi, bo‘ladi (O‘.H., «Ikki karra ikki - besh», 152-b.). **Non ushatmoq.** Uydagilar meni o‘qishdaligimda Salimaga non ushatishibdi («Oila va jamiyat», 1998, 19-yanv). **Oq kiymoq.** Sovchilar ikkinchi borganda oq kiyib, ...kelishibdi («O‘zAS», 23-iyun). **Patir ushatmoq.** Tunov kun kenjamizgayam patir ushatib qo‘ydik, ko‘klamda to‘yi («Ayol va zamon», 1999, 28-noyabr). **Ro‘yxatdan o‘tmoq.** Bir xatingizda: «...ro‘yxatdan o‘tsak bo‘ladimi», degan edingiz. Bu maslahatga men rozi. Biroq turmush qurishimizga biroz vaqt bor (G‘. G‘., «Puch gaplar», 12-b.). **Taqdiri taqdiriga qo‘shilmoq (bog‘lanmoq).** Ikki yosh taqdirlari taqdirlariga bog‘langan kunni hech ham unutmazlikka kelishib oldilar. («Saodat», 1998, №6, 29-b.). **Unashtir(il)moq.** Kechirasiz, men unashtirilganman («FT», 1996, №2, 38-b.). **Fotiha bo‘lmoq.** ...U Sobirga fotiha bo‘lgan. Vasiyatda uni otazor, Sobirjonga bo‘lsin deb o‘lgan (H.O.). **Fotiha ko‘tarmoq.** Zaynab bilan Sobirni maqtab, Va ikkovin bir-biriga atab, Va fotiha ko‘tarib shu on... (H.O., «Zaynab va Omon», 93-b.). **Fotiha to‘yi bo‘lmoq.** Kecha fotiha to‘yimiz bo‘lib o‘tdi, yaqinda katta to‘y... («Saodat», 1996, №3, 9-b.). **Fotiha qilmoq.** Otang yotib qolmaganda allaqachonlar fotiha qilar edik, balki to‘ylaring ham bo‘lardi (A.Q., 3-t., 31-b.). **El ma‘lumi qilmoq.** Hozircha el ma‘limi qilib qo‘ysak, biroz yig‘inib olgach, to‘ylarini qilib berardik («Oila va jamiyat», 1996, 21-dek.). **Etak yirtish qil(in)moq.** Mo‘minjon ikkimiz yoshligimizdan etak yirtish qilinganmiz («Chimildiq», 1999, 2-yanv.). **Yulduzini yulduziga qo‘shmoq.** Yoshlarning yulduzini yulduziga qo‘shib qo‘ydik, endi to‘y ... («Saodat», 1997, №2, 18-b.). **Qulog‘i tishlatilmoq.** Uzr, qizimizning qulog‘i tishlatilgan... («Yosh kuch», 1998, №4, 25-b.). **Qo‘y yubormoq.** ...Qo‘y yuboray ostonasiga (qo‘shiqdan). Bulardan tashqari, Xorazm shevalarida respublikamizning boshqa hududlari vakillari tilida uchramaydigan yoki kam uchraydigan **oq olishmoq, ro‘mol olishmoq, ro‘mol yirtmoq, patir olishmoq, patir sindirmoq, non sindirmoq, o‘g‘ri patir tashlab qo‘ymoq, potyalamoq, ro‘mol o‘rab qo‘ymoq, eshik ochar qilmoq, boshini boylab (yoki bog‘lab) quymoq** kabi evfemalar ham borki, bular o‘zbek xalqining oila qurish bilan bog‘liq jarayonlarga nechog‘li mas‘ul ekanligidan dalolat berib turadi.

1.3. Nikoh va nikoh to‘yi nutqi evfemikasi

Nikoh soʻzi arabcha - nakaha, nikahun, oʻzbekcha - nikohga kirmoq, uylanmoq, erga tegmoq (21, 1055). Boshqacha aytganda, sharʼiy qonun asosida qilingan «bayʼat», «ahdu paymon». Nikoh bilan bogʻliq oʻqiladigan «Xutba» yoki muomala va bayonlar oʻziga xos, birmuncha qoliplashgan evfemik matnlardir. Mulla tomonidan kelin-kuyovlarga beriladigan savollar ham (Bir-biringizni sevasizmi? Siz bu qizni xotinlikka olasizmi? Siz bu yigitga erga tegasizmi? tarzida emas), kelin-kuyov tomonidan beriladigan javoblar ham (Ha, biz bir-birimizni sevamiz. Men bu qizni olaman. Men bu yigitta tegaman tarzida emas) islomiy ahloq-odob normalari asosiga qurilgan boʻladi. Yaʼni mulla nutqida **«falonchi ibn falonchi»**, **«Siz falonchi binni fa-lonchi» bilan juftlikka** (yoki **juftlashishga**), **jufti** halollikka, **birlashishga, mahramlikka (tanmahramlikka), birga hayot kechirishga, umrdoshlikka, yostiqdoshlikka rozimisiz** (qizdan ham shu tarzda soʻraladi) kabi evfemik savollar qoʻllanadi (65, 22-23). Hatto «ha» degan mavhum tasdiq ham goʻyo qiz uchun hayosizlik hisoblanganligidan («oʻlib turgan ekan» degan tushuncha anglashilmasin uchun), ekstralingvistik (nolisoniy - soʻzsiz - sukut) yoki kinetik (imo-ishora, bosh irgʻish) vositalari orqali amalga oshiriladi. «Sukut-rozilik alomati» maqoli shundan kelib chiqqan.

Xayrulla domla soʻradi: Sizkim Oymomo Abduboy qizi, oʻzingizni Qoplonboy Qurbonboy oʻgʻliga bagʻishladingizmi?

- Sukunat. Xayrulla domla oxirgi - uchinchi bor soʻradi. Javob boʻlmadi. Uchdan keyin puch boʻldi. Domla tashqari ravona boʻldi. - Kelin xohlamayapti, nikohni qoldiramiz dedi. Shunda oq parda ichidan: - Ha... demish zaif ovoz keldi. (T.Murod, «Oydinda yurgan odamlar», 227-b.).

Hozir ham togʻ chorvadorlari hayotida nikoh bilan bogʻliq juda koʻpgina udumlar mavjudki, bular orqali kutilgan ezgu maqsadlar nutq orqali ifodalanmaydi (noverbal ifoda). Uning tagmaʼnosi atrofdagilarga anglashila beradi. Masalan, kelin ota hovlisidan chiqayotganda, kuyov uyiga kelganda ham darvoza ikki yonida gulxan yoqiladi, isiriq (hazorispand) solinadi. Bu ziyon-zahmatdan himoyalanoq - saqlanmoq demakdir. Yoki kelin-kuyov oldini toʻsish-tayoq tashlash, arqon tutish (dastavval, biror narsa undirish uchun boʻlmagan) aslida hayotiy qiyinchiliklarni, toʻsiqlarni yengib oʻtsin; un sepish - koʻngil qoralik yuz bermasin; sochqi sochish (sochaloq) - rizqli boʻlsin; «kampir oʻldi», «qoʻy yotqizish» (kelin oyogʻi ostida) - yuksak eʼtiqodlilik; eshikka bosh urish (kelin boshi eshikka tegiziladi) - kuyov uyining muqaddasligi; oyna koʻrsatar - tiniq, yorugʻ hayot; soch siypatar -tekis, ravon xayot; oyoq bosti - oʻktamlilik (kim - kimning oyogʻini oldin bossa tili uzun boʻlarmish); qoʻl ushlatar - bir-biri bilan bogʻlanib qolmoq; kuyov yelkasidan igna bilan ip oʻtkazish (chatib qoʻyish) -ajralmaslik; bugʻdoy sepish (kuyov orqasiga) - rizq, serpushtlik; goʻdak ushlatish (kelinga) - serfarzandlilik; kuyov tovoq - kuyov tomon mardligini sinovdan oʻtkazmoq; ityaloqqa ovqat qoʻyish - vafodor

bo'lmoq; kelin salom - kelinning kuyov xonadoniga e'tiqodi, hurmat va ta'zimi; uchoqqa moy tomizish - rizq-nasibali bo'lmoq; «kelin osh yemadi» - sovg'a-sarpo olmoq; bet ochar - meros olmoq, «to'qqiz» - kelinnikiga to'ylik materiallari yuborish - to'y kelmoq tushunchalarini ramziy evfemik ifodasidir.

Bu udumlar Tog'ay Murodning «Oydinda yurgan odamlar» qissasida ham aks etgan: It g'irillatar, kampir o'ldi, soch siypatar, qo'l ushlatlar bo'ldi. Kayvoni ayol kelin-kuyovga oyna tutdi - hayoti tiniq bo'lsin dedi. Nikoh o'qilish mobaynida onasi kuyov yelkasiga beqasam chopon yopdi. Beqasam elkasidan igna bilan ip o'tkazib oldi. Bu, kuyov-qayliq hamisha birikib yursin, ajralib ketmasin degani bo'ldi. Ip uchlarini tugmadi. Kelin-kuyov taqdir peshonasi tugilmasin degan bo'ldi. Kuyov boshi uzra bir hovuch bug'doy sepdi. Bu, bug'doydan serob bo'lsin, bola-chaqali bo'lsin degani bo'ldi (229-,233-234-b.).

Kelin tongda turdi. Shu xonadonga sodiq bo'lish ramzida ityalog'iga ovqat qo'ydi. Porillab yonmish olovga moy tomizdi. Nevara-chevarali bo'lib yurayin deya, qo'lga go'dak oldi. Barcha palov edi. Kelin bo'lsa qo'lini-da uzatmadi. Shunda «kelin osh emadi» bo'ldi. Yuz ochar bo'ldi. Kuyov uka chopqillab bordi. Yangasi yuzidagi ro'molini tortib yubordi. Kelin yuz ochdi (244-b.). Oy o'tdi. Kelinnikiga ko'rpa-to'shak matolari bilan paxta keldi. Bu «to'qqiz» deb ataldi (225-b.). Ismat bobolar ilgari Hulkarga bergan «to'qqiz»larini qaytarib olishdi (to'yni qaytarish ma'nosida) (P.Qod., «Qora ko'zlar», 37-b.).

Sho'ro davrida nikoh to'yi o'tkazish udumi yangicha shakllandi: asosan, yoshlar to'yiga aylandi; ko'p hollarda qizning ota-onasi, qarindosh-urug'lari ham qatnashadigan bo'ldiki, bunday zamonaviy nikoh to'ylarida aytiladigan gap-nutq-ning sharqona, odob-axloq talabi normasida bo'lishini, ba'zan evfemik ifodalarda bayon etilishini taqozo qiladi. Boshqacha aytganda, nikoh to'ylarida so'zlangan nutq ibrat, o'git, ezgu niyat va istaklar, duolar yoshlarning kelajagi uchun nazariy dastur bo'lishi kerak. Shunday ekan, Mana bugun visol oqshomi, ikki yoshning entikib, intiqib kutgan oqshomi, ikki yoshning qovushadigan kechasi; Bir yil o'tib (ba'zan o'tmay, o'tar-o'tmas), shu uyda chaqaloq ovozi - ingasi eshitilsin; Bolalari bir futbol komandasi bo'lsin; hattoki, «gorka-gorka» deyish (o'pishishsin ma'nosida); kelin-kuyov bir o'ynab bersin (o'yinga tushsin ma'nosida); Er-u xotin - qo'sh ho'kiz bo'lsin; O'zidan ko'paysin (birovdan ko'paymasin deganday), o'rtalaridan qora mushuk o'tmasin kabi nomunosib, ibosiz gaplar o'rnida Qo'sha qarisin, borgan joyidan baxt **topsin**, ildiz **otsin**; Kelin-tushgan uyining qizi, kuyov - kelin ota-onasining o'g'li bulib qolsin; **kelin-kuyovga mehr-muhabbat qanot bersin**; Alloh **madadkor** bo'lsin kabi dilkusho evfemik ibora va ifodalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek tilida *xotin olmoq (uylanmoq)* ma'nosini ifodalovchi evfemalar talaygina. Quyida ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz.

Aya (oyi, ona, opa...) olib bermoq. Abdurahmon, senga yaxshi aya olib bermoqchimiz, maylimi? (S.S., «Saratonda qor yog‘di», 7-b.). **Axdini qabul qilmoq.** Baroqxon qizga (Mahmudaga) kishi yubordi, mani ahdimni qilsun deb. Yana Mirzo Jahongir kishi yubordi, Mahmuda mani qabul qilsun deb («Temurnoma», 156-b.). **Bir yostuqqa bosh qo‘ymoq.** U bunga keyin, o‘zi ham onasiga o‘xshagan beozorgina bir qizni yaxshi ko‘rib, bir yostuqqa bosh qo‘yganda ...tushundi (N.Qobul, «Unitilgan sohillar», Yoshlik, 1998, №4, 41-b.). **Bir juft bo‘lib kelmoq.** O‘g‘lining bir juft bo‘lib kelganini Gulmat ota ham eshitgan edi (S.S., «Tuladan kelgan kelin», 119-b.). **Bir oilaning ota-onasi bo‘lmoq.** Zulfiya, xo‘b desangiz bir oilaning ota-onalari bo‘lsak (G‘.G‘. «Puch gaplar», 12-b.). **Boshiga ro‘zg‘or yumushi tushmoq.** Sobirjonning ham boshiga ro‘zg‘or yumushi tushdi-da endi, a? (N.A. «Qitig‘i o‘lmagan qiz», 78-b.). **Boshini ikki qilmoq.** Kampir shu bolaning boshini ikki qilmasam, u dunyoda dadasining yuziga qandoq qarayman, deb o‘ylardi (S.Ahm., «Jimjitlik», 208-b.). **Bo‘lmoq.** Sen ... Sen meniki bo‘lasan (M.Koz., «Qo‘rqinchli Tehron», 213-b.). **Va‘daga vafo qilmoq.** Sobirjon qizga bergan va‘dasiga vafo qildi («Saodat», 1993, №1, 20-b.). **Ikki ko‘zi to‘rt bo‘lmoq** (Xorazm shevalarida). **Yo‘ldosh qilmoq.** Bek. Men seni halol yo‘ldosh qilaman degan edim (Ch., «Yorqinoy», 315-b.). **Kelin qilmoq.** O‘ylab-o‘ylab o‘sha qizni kelin qildik («Saodat», 1993, №1, 21-b.). **Kelin olmoq.** Men ham bundoq odamlarday kelin olib, oyoq-qo‘limni uzatib o‘tirgim bor (O‘.H., «Ikki karra ikki-besh», 93-b.). // **Kelin olib bermoq.** Uydagilar menga kelin olib berishmoqchi («Turkiston», 1999, 21-iyun.) **Malika qilmoq.** Majdiddin: - Shahanshoh seni padar, qizingni malika qilmoqchi (U., I.Sulton, «Navoiy», 48-b.). **Maqsadga etmoq.** Yigit oxiri to‘rt yil deganda maqsadiga etdi («Oila va jamiyat», 1998, 18-mart). **Nasibasi qo‘shilmoq.** Anvarning sizga o‘xshagan qizga nasibasi qo‘shilsa, aqli tezroq kirar edi. (A.Q., 3-t., 351-b.). **Nikoh o‘qimoq.** Hozirgina imom-domla kelib, nikohni o‘qidi (Ch., «Yorqinoy», 326-b.). **Nikoh qildirmoq.** ...Meni siyosat bilan qo‘rqitib, qizimni o‘g‘liga nikoh qildirdi (H.H., «Maysaraning ishi», 93-b.). **Oyog‘i to‘rtta bo‘lmoq.** Jo‘rangning oyog‘i to‘rtta bo‘layati (O‘.H., «Ikki karra ikki - besh», 168-b.). **Oyog‘ini to‘rtta qilmoq.** Bu o‘g‘limizning oyog‘ini tezroq to‘rtta qilmasak, ... («Ayol va zamon», 1999, 18-noyabr). **Oila boshlig‘i (xo‘jayini, egasi, sohibi) bo‘lmoq.** Mana, sen ham endi oila boshlig‘isan (O‘.H., «Ikki karra ikki - besh», 132-b.). **Oila qurmoq.** Noilaxon bilan oila qurgan kunimizdanoq, o‘zaro hurmatni birinchi o‘ringa qo‘yganman («Saodat», 1991, №8, 6-b.). // **Oilaviy turmush qurmoq.** Oilaviy turmushni talabalalik yillaridan qurganman (A.Jumaqul., «Yurakka sig‘magan gaplar», 93-b.). **Ola xo‘rjin (bo‘yinga, gardanga, elkaga) tushmoq.** Har bir yigitning bo‘yniga ola xo‘rjinning tushmog‘i bor (A.Jumaqul., «Yurakka sig‘magan gaplar», 29-b.). **Olmoq.** Anvar sizni olmasligiga meni ishontirgani yo‘q, ... (A.Q., 3-t., 350-b.). **Olib bermoq.** Endigi kelgan halolalarmi, yoki birorta tul xotin kelib qolsa, shuni Mullado‘stga olib beraylik (H.H., «Maysaraning ishi», 25-b.). **Onasi o‘pmagan (qiz)ni olmoq.** Shoshmay tur hali, onasi o‘pmaganidan olmasammi, ... (N.A., «Qitig‘i o‘lmagan qiz», 83-b.). **Tegib qolmoq.** Mullado‘st. Bizga

mana bu halala-palalalardan birortasi tegib qolsa dedik-da (H.H, «Maysaraning ishi», 27-b.). **Tengini topmoq.** Harbiy xizmatdan qaytgan, hali-beri uylanmayman degan Qodirjon ham tengini topib ketdi («Surxon tongi», 1998, 14-yanvar). **Topishib qo‘ymoq.** Xadicha, ke, senam beva, menam beva. Ikkovmiz haligidek topishib qo‘ya qolaylik (SAhm., «Sobiq o‘g‘ri», 20-b.). **Turmush tashvishi tushmoq.** Endigina turmush tashvishini bo‘yniga olgan yigitlarning boshi berk ko‘chaga kirib qolishidan yomoni yo‘q. (A.Q., 3-t., 261-b.). **Turmush qurmoq.** Saidaxon bilan ko‘ngil berishib turmush qurdim (SAhm., «Asarlar», 98-b.). **To‘y bo‘lmoq.** 1949-yil 27-sentabr kuni Saida Zunnunova bilan to‘yimiz bo‘ldi (S.Ahm., «Asarlar», 88-b.). **Uylamoq.** O‘g‘limizni eson-omon uylab olsak, nevara ko‘rsak ... devdim (N.A., «Elvizak», 62-b.). //Uylanmoq. Uylanganimga 2 yil bo‘ldi. Turmushimiz yaxshi («Saodat», 1991, №9, 41-b.). //Uylantirmoq. Shuncha qilib uylantirolmadik. O‘qiyman deb turib oldi («Urganch oqshomi», 1999, 21-noyabr). **Uyda boshqa xotin o‘tirmoq.** Pushaymon yeb qaytib kelganingda, bu uyda boshqa xotin o‘tirgan bo‘ladi? (A.Q., 4-t., 124-b.). **Xohlagani bo‘lmoq.** O‘g‘limizning xohlagani bo‘ldi, ishqilib baxtli bo‘lib ketsa bo‘lgani (N.A., «Qitig‘i o‘lmagan qiz», 81-b.). **Evlanmoq.** Mingboshining o‘zi esa har sana bir evlanmoqda (Ch., «Yorqnoy», 93-b.). //Ergashtirib kelmoq. Menga bir og‘iz maslahat solmay, o‘risning yurtidan bir ko‘kko‘zni ergashtirib keddin-a, betavfiq? (S.S «Tuladan kelgan kelin», 13-b.). **Yulduziga yulduzi qo‘shilmoq.** Yigitning yulduzi qizning yulduziga qo‘shildi («Saodat», 1994, №8. 32-b.). **Qilmoq.** Usta Abdurahmon ko‘pdan beri Niso buviga: Mehrini Faxriddinga qilamiz deb yurardi (A.Q., 1-t., 258-b.). **Qovushmoq.** Shu hovlida bir gul bor, Shu gulga bir bulbul bor. Ikkisi qovushmasa, hey, Yig‘lab o‘tadi zor-zor (F.) Madomiki, jiddiy monelik yo‘q ekan, tezroq qovushishni maslahat berdi (A.Q., 3-t., 354-b.). **Hayotga qadam qo‘ymoq.** Kechagina mustaqil hayotga qadam qo‘yib, oila tashvishi boshiga tushgan yigitlar ... («Saodat», 1994, №1, 32-b.).

O‘zbek tilida erga tegmoq, erga bermoq ma‘nosini ifodalovchi evfemalar ham ellikdan ortiq bo‘lib, quyida ularning ayrimlarini keltirib o‘tamiz.

Ahd aylamoq. Sohibqiron Sokinabonuni nikoh qilib, Mirzoni ularga ahd ayladilar («Temurnoma», 155-b.). Bermoq (**berib yubormoq**). Nazokatni berib yuborganimizga ham ikki yil bo‘ldi («Saodat», 1993, №2, 9-b.). **Baxtini topib ketmoq.** Shu qizimdan qo‘rqqudim. Xudoga shukr, baxtini topib ketdi («Urganch oqshomi», 2000 12-fevral). **Bir yostiqa bosh qo‘ymoq.** Bu qiz ne-ne pokiza orzu-umidlar bilan u bilan bir yostiqa bosh qo‘ydi (A.Jumaqul., «Yurakka sig‘magan gaplar», 30-b.). **Birovning uyiga bormoq.** Qizim, «birov»ning uyiga borganda, avvalo, qaynota-qaynonangning, xo‘jayin va... ra‘yiga qara («Ayol va zamon», 1999, 18-noyabr). **Bo‘lmoq.** Shom viloyatidan senga bo‘layin deb keldim, mani nikoh birla olg‘il («Qissasul anbiyo»dan). **Joylashtirmoq.** ... buning ustiga uch qizni joylashtirdim. («Saodat», 1990, №3, 21-b.). **Kuyovga bermoq.** Faraz qilaylik men seni majburan kuyovga berdim (A.Q., 1-T., 140-b.). **Kuyovga tegmoq.**

– Oyto‘yi opa, endi siz ...kuyovga tegasizmi? (S.S., «Saratonda qor yog‘di», 74-b.). **Kuyovlikka xohlamoq.** Mahmuda aydi: ... qaysi birini yoqtirsam, oni kuyovliqini xohlarman («Temurnoma», 157-b.). **Kuzatmoq.** – Mana, yolg‘izgina qizimizni ham kuzatdik («Guliston», 1990, №3, 23-b.). **Kuzatib yubormoq.** Qiz kuzatib yuborilganiga ancha bo‘lgan edi («Temurnoma», 81-b.). **Ko‘nmoq.** Guli: – Shohim, siz Majdiddinni sovchi qilib yuborganingizda, ko‘nishga majbur bo‘ldim (U., I.Sulton, «Navoiy», 63-b.). **Nikohiga olmoq.** U kishim meni o‘z nikohlarig‘a oldilar (P.Qod., «Avlodlar dovoni», 107-b.). // **Nikohiga kirmoq.** Qiz vaqtincha uning nikohiga kirgan edi («Choliqushi» filmidan). // **Nikohiga o‘tmoq.** Shunda u cholning nikohiga o‘tgan edi. (A.Q., 2-I., 232-b.). **Nikohiga rozi bo‘lmoq.** Kal, men qancha jirkansam ham, nikohiga rozi bo‘ldim (Ch., «Yorqinoy», 320-b.). **Nasibasi qo‘shilmoq.** Mening nasibam boshqa bir yigitning nasibasiga qo‘shildi, dedi Muattar (A.Q., 3-t., 351-b.). **Oila qilmoq.** Oila qilgan qizlar boshda do‘ppi, atlas ko‘ylak... bilan ajralib turadi («Chimildiq», 1999, 10-fevral). // **Oila qurmoq.** Singlim, oila qurganlaringizga qancha bo‘ldi? («Chimildiq», 1999,10-fevral). **Turmush qilmoq.** Muhayyoning turmush qilganini eshitib, yer-u ko‘k ko‘zimga qorong‘u bo‘lib ketdi («Saodat», 1989, №9, 21-b.). // **Turmush qurmoq.** Qiz bola turmush qurgandan keyin birovning hasmi bo‘ladi («Surxon tongi», 2001, 3-fevral). **Turmushga bermoq.** «Men ota-onam turmushga berayotir ...» (A.Jumaqul, «Yurakka sig‘magan gaplar», 34-b.). // **Turmushga uzamoq.** Qizimizni turmushga uzatdik («Saodat», 1992, №3, 29-b.). // **Turmushga chiq(ar)moq.** Domla kichik qizlarini turmushga chiqarmoqchi bo‘ladilar (N.A., «Elvizak», 87-b.). **To‘y bo‘lmoq.** O‘g‘lim, Saida ham to‘y bo‘lib ketdi («Ayol va zamon»,1999, 18-noyabr).

Uy qilmoq. Uning Turobjon bilan uy qilganiga uch yil bo‘ldi (A.Q., 1-t., 287-b.). // **Uyli bo‘lmoq.** Yangi kelin bo‘lib tushgan Malikaxon o‘ziga-o‘zi: – Nahotki, uyli bo‘lgan bo‘lsam, ishongim kelmaydi, dedi («Saodat», 1994, №5, 10-b.). // **Uyli qilmoq.** Orzuim, yolg‘izgina qizimni uyli qilsam, armonim yo‘q. («Saodat», 1989, №3, 31-b.). // **Uyli-joyli qilmoq.** Xotin, shu kenja qizingni ham uyli-joyli qilib, so‘ng biz qam odamlardek u-bu yerga borib dam olardik («Turkiston», 1999, 25-avgust). **Uzatmoq.** Erta-indin singlingni uzatsak, seniyam oyog‘ingni to‘rtta qilib qo‘yamiz (O‘.H., «Ikki karra ikki-besh», 100-b.). // **Uzatib yubormoq.** Bitta asrandi qizlari bor ekan, Samarqandgami, bir yoqqa uzatib yuborishibdi (S.S., «Saratonda qor yog‘di», 37-b.). **Uzatib kelmoq.** Yangalar: – Qani, kuyov to‘ra, mullajiringdan chiqaring, kelinni ancha mashaqqatlar bilan uzatib kelayapmiz («Turkiston», 1999, 15-sentabr). // **Uzatib bormoq.** Xolidani onasi va mahallaning uch-to‘rt kayvoni xotinlari uzatib bordilar («Saodat», 1990, №2, 32-b.). **Umrni bag‘ishlamoq.** Yetti yil umrim o‘tdi, endi qolgan umrimni birovga bag‘ishlasam bo‘ladi («Saodat», 1990, №3, 21-b.). **Familiyani o‘zgartirmoq.** Zulfiyaning familiyasi o‘zgargan edi... («Saodat», 1989, №10, 20-b.). **Chiqarmoq.** Katta qizini bundan ikki yil oldin chiqargan (Ch.,

«Yorqinoy», 54-b.). **Egasiga topshirmoq.** Ra'noni egasiga topshirmagunimizcha, - dedi Nigor oyim, - quyiladiganga o'xshamaydi (A.Qod., «Mehrobdan chayon», 76-b.).

Er qilmoq. U tengilar er qilib bolalik ham bo'ldi (P.Qod., «Avlodlar dovoni», 107-b.). **O'zini topshirmoq.** Manga talab etsa qilsun so'zumni, Kimarsa anga topshirsam o'zimni («Temurnoma», 156-b.). **O'zni bag'ishlamoq.** O'ljoy Turxon aydi: Men o'zimni senga bag'ishladim («Temurnoma», 86-b.). **Qiz chiqarmoq.** Katta opasi qiz chiqardi (N.A., «Elvizak», 5-b.). **Qutilmoq.** Oxirgi qizimdan o'tgan yili kovun pishig'ida qutilganman («Turkiston», 1998, 13-yanvar). // **Qutilib olmoq.** Dadasi, shu qizingizdan qachon qutilib olamiz ekan-a?! (A.Q., 4-t., 283-b) **Qo'shni hovliga bormoq.** Qiz bola qo'shni hovliga borgan-da, o'zini tuta bilishi... («Ayol va zamon», 1999, 18-noyabr). **Hamsoyaning uyiga bormoq.** Qizim, hamsoyaning uyiga borganingdayam... (so'zlashuvdan). (...) –famiyasini o'zgartiradi: Avval Bahrieva edim, endi Nazarovaman, -jilmaydi u. («Saodat», 1989, №10, 30-b.).

II BOB. NIHOH TO‘YIDAN KEYINGI MUOMALA NUTQI EVFEMIKASI

2.1. Er-xotin nutqi evfemikasi

Unashtirilgan (fotiha» qilingan) kundan boshlab qiz-kelin (kelin - kelmoq fe’lidan), yigit - kuyov (kuyov - kuymoq fe’lidan) atamasini oladi.

Kelin-kuyov murojaati bilan bog‘liq yoki umuman, tilga olinishi odobsizlik hisoblangan shaxs ismlari o‘rnida qo‘llanilgan evfemik atamalar bora-bora o‘sha shaxsning laqabi yoki taxallusiga aylanib, rasmiy nom unitilib ham boradi (39, 118-120). Masalan, Surxondaryoning qator tog‘ qishloqlarida tabu tufayli orttirilgan *Kenja, Mergan, Qorasoch, Oqqo‘zi, Sho‘ro, Polvon, Mulla, Baxshi, Yuzboshi, Oqsoqol, Dallol, Qassob* kabi nomlar borki, bugungi kunda bularni aslida «bosh harflar» bilan aytiladigan evfemik laqablar ekanligini hamma ham payqamaydi.

O‘tmishda ham qiz va yigit unashtirilishi bilan, xususan, nikohga kirgandan keyin, bir-birlarining nomlarini atamaslik ko‘pgina xalqlarda qat’iyyilashirilgan (tabu): Ram, Sita, Lakshman aftoda holatda o‘rmon chetidagi bir xonadonga kelib qolishadi. Ayollar davrasida o‘tirgan Sitadan bir xotin bu yigitlar kimgiz bo‘ladi deb so‘raganda, Sita: Ana u - qaynim (Lakshmanga ishora qilib), unisi... deb to‘xtab qoladi. So‘ragan xotin: Bo‘ldi, bo‘ldi tushundim, deydi. Shu o‘rinda Sita: Uning oti - Ram yoki u - mening erim deya olmaydi («Ramayana»dan).

«Qissasi ul-anbiyo»da ham ayol so‘zi o‘rnida **avrat**, er so‘zi o‘rnida **erkak** yoki **mard** so‘zi evfema sifatida qo‘llanilgan: Sulaymon... horib, ochib bir kentga kirdi. Bir qapug‘da bir avrat ko‘rindi. Sulaymon aydi: Taomga muhtojman. Avrat aydi: Mardim evda yo‘q (73-6.).

A.Omonturdiyevning yozishicha, Surxondaryo, Qashqadaryoning ayrim tog‘ qishloqlari aholisi ayollari nutqida hozir ham er o‘rnida **mardim**, **erkak**, **mardak**, **kishi** so‘zlari evfema sifatida qo‘llaniladi (Uyda mardagimiz, mardimiz yo‘q yoki mardagim yo‘q, kishim yo‘q tarzida). Bu jarayonlar ham badiiy asarlarda yoki hozirgi nutqda o‘z aksini topolmagan.

Og‘ir iztirobda turgan, biroq tegayotgan yigitni Otabek ekanligini bilib qolgan Kumush: Dod! Siz Otabek akamisiz deb yuborishi mumkin edi. Mana shu jarayonlarning bari: «**Siz o‘shami?»** (63-b.) evfemasi orqali ifodalangan.

Yana bir jonli misol: Saylov ro‘yxatini tuzish uchun bir xonadon sohibasidan erining ismi, familiyasini so‘radik. Oldin aytmadi (tabulashtirilganligini angladik), keyin zo‘rg‘a familiyasini aytdi (Salimov). Ismini aytmadi. Qistayberganimizdan keyin: «Ustalar ishlatadigan asbob» dedi. «Folbinlik» qilib Tesha ekanligini bilib oldik.

Kelin va kuyov (endi er va xotin) bir-birlarining nomlarini mana shunday ochiq ayta olmaslik udumi (hozirgi yoshlar bundan mustasno) bu tushunchalar (er va xotin nomlari)ning evfemalashishiga sabab bo‘lgan.

Juftliklarning kelin-kuyovlik davridagi bir-biriga qiladigan murojaat vositalari o'ziga xos yoki uqadar shakllanmagan bo'ladi. Xususan, birovlar oldida ochiq murojaat o'rnida u, ular kabi olmoshlar orqali mavhum olmoshlar vositasi bilan muomala qilinadi. Kelin qaynota, qaynonaga erini - o'g'lingiz; kuyov ham ota-onasiga xotinini keliningiz; yoki kelin o'z ota-onasiga erini - kuyovingiz; kuyov qaynota, qaynonasiga xotinini - qizingiz evfemik atamalari bilan murojaat qiladi.

Sharqda, jumladan, o'zbeklarda kelin-kuyovning bola ko'rish davri boshlangach, bir-birlarini to'ng'ich (xoh qiz, xoh o'g'il bo'lsin) farzandlarining nomi bilan atay boshlaganlar: «O'zbekda axir har bir erkak o'z xotinini - o'z halol juftini qizi yo o'g'lining nomi bilan atab chaqiradi. O'z xotining ismini aytib chaqirish yaramaydi. Xotining ismi Maryam, qizining ismi Xadicha bo'lsa, mo'min-musulmonchilik, sharm-u hayo yuzasidan xotinini Xadicha deb chaqiradi. Aksar ona-bola baravar «labbay» deydi. Shunday oilaning haqiqiy egasi bo'lgan ota: «Kattangni aytayapman, kattangni!» deydi. Hatto shunda ham «Maryamni» demaydi (134, 576).

Anglashiladiki, kelin, kuyovlar bir-birlarining nomlari o'rnida qizingiz, o'g'lingiz; kuyovingiz, keliningiz so'zlarini qo'llashlariga yoki farzand nomi bilan onasiga murojaat qilinishida muayyan axloq-odob normasi sabab bo'ladi.

O'zi olmoshining evfemikligi. Er-xotinning o'zaro muomalasida qo'llanadigan evfemik vositalar tog' chorvadorlari nutqida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, o'zi olmoshi er tushunchasi yoki o'z nomining evfemasi sifatida qo'llaniladi. Bunda o'zi olmoshi shaklan III shaxsda bo'lsa-da, er-xotin o'rtasidagi dialogik muomalada (faqat xotin nutqida), mazmunan II shaxsni ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, xotin (I shaxs) eri (II shaxs)ga qaratilgan fikrini III shaxsdagi gap modeli orqali bayon etadi. Shu sabab o'z olmoshi ham III shaxs (o'zi)da shakllanadi:

Kuyov qayliq... nimalarni xayol surayapti, shuni bilmoqchi bo'ldilar:

- Gapir, -dedi kuyov.
- O'zi gapirsin, -dedi qayliq.
- Sen gapir.
- O'zi gapirsin-da.
- Nimani gapirayin?
- O'zimizning oqshomlardan gapirsin, qirdagi bug'doy o'rimidan gapirsin.
- Sen gapir... Men senga zardoli terib berganimni.
- O'zi gapirsin, qo'llari zardoli shoxlarida bo'lsa-da, ko'zlari menda ekanini... (T.M., «Oydinda yurgan odamlar», 234-b.).
- Meni qizillar yo'qlasa, toqqa - o'tinga ketgan de.
- O'zi qayerda yuribdi?
- Ishing bo'lmasin.

- Nega ishim bo'lmaydi, o'lik-tirigini bilayin-da.
- Hayitkal jarida yotibmiz.
- Jarda nima qiladi? Bir o'zimi?
- Bir o'zim qayoqda, o'nta jigit.
- Kechasi Hayitkalning jarida nima qiladi-a? Uyginasida yotsa bo'lmaydimi? (T.M., «Otamdan qolgan dalalar», 30-b).

Bu matnlarda, bir qarashda evfemik ifoda anglashilmaydi. Aksincha, erga o'zi so'zi o'mida II shaxs ko'plikdagi o'zingiz (hurmat ma'nosida) olmoshi bilan murojaat qilish yumshoq-ku! degan savol tug'iladi: Meni sevgan o'zi edi-ku (T.Murod) gapidan Meni sevgan o'zingiz edingiz-ku gapi yumshoq-da. Biroq bunda:

1) adresatning - fikr yo'naltirilgan shaxsning II shaxsdan olinib III shaxsga ko'chirilishi (shaklan, albatta) voqelikni yumshatib turadi; 2) o'zi olmoshida, yuqorida aytilganidek, er tushunchasi, uni nomi yashirilgan bo'ladi; 3) bu individual yoki okkazional uslub muayyan xalq, urug', qabilaning an'anaviy muomala, axloq normasiga mos keladi; 4) muomala tariximiz ham II shaxsga III shaxsdagi gap modeli bilan murojaat etib (ega-kesimni ko'plikda keltirib), evfemik ifoda hosil qilinganligidan dalolat beradi: O'zlaridan so'rasak. Bir vaqtlar janobi oliylaridan (o'zlaridan) o'git eshitganmiz. Yoki O'zlari ijizat bersalar, mashg'ul bo'lur edik. («Temurnoma»); 5) qolaversa, uzoq tog' qishloqlari aholisi xotirasida o'zi so'zi ilohiy ma'noni (Xudo, Egam ma'nosida ham qo'llaniladi) ham eslatib turadi: O'zi qo'llasin, O'ziga topshirdim kabi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bola tug'ilgach, kelin, kuyov ota, ona bo'lishadi: Odatga ko'ra, endi otasi, onasi (bolaning otasi, onasi ma'nosida) evfemik atamasi paydo bo'ladi: xotin eriga - otasi, er xotiniga - onasi deb murojaat qiladi. Nevara tug'ilgach, bobosi, momosi evfemik atamaları paydo bo'ladi. Bu udum T. Murodning «Oydinda yurgan odamlar» qissasida quyidagicha aks etgan:

Kuyov qaylig'i yuzini bag'riga bosdi.

- Otini nima qo'yamiz? -dedi.
- Barchinoy.
- Sen hali...
- Qiz yaxshi-da. Menga yordamchi bo'ladi.
- Yo'q, o'g'il bo'lsin. Otini-da o'ylab qo'yibman.
- Xushvaqt!
- Keyin?
- Keyin Xushvaqtni katta qilamiz, uylantiramiz, joylashtiramiz, nevara-chevara ko'ramiz. Men bova bo'laman, sen momo bo'lasan. Qayliq zavqlanib-zavqlanib kuldi.
- Men bu kishini bovasi deb chaqiraman.

- Men seni momasi deb chaqiraman.

- Bovasi.

- Momasi (240-b.).

- Uff, ishning oxiriyam bormikin-a, - Tirikchilik, momosi, tirikchilik. Hozir kimimizning yuz xotirini qiladilar momosi... Eshitdingmi, momosi, Vaxshivorda birov yetmishida farzand ko'ribdi (841-b.). Bobosi, sizga taom tayyor bo'ldi. Siz bozorga bormoqchi edingiz, bobosi (76-b.).

Oymomo va Qoplon to o'lguncha bir-birlariga **Bobosi, Momosi** deb murojaat qilishadi. Yozuvchi ham qissada bosh qahramon nomlarini tilga olmaydi. Ularning **otamiz, onamiz**, so'ngroq **bobomiz, momomiz** evfemik atamaları bilan nomlaydi: Onamiz otamiz yangi ro'zg'or qilayapti deb eshitdi. Onamiz g'amgin bo'ldi. Onamiz kuyib-kuyib ketdi. Otamiz otlandi. Otamiz jamoa bilan yuzma-yuz bo'ldi (318-319-b.) kabi. Bobomiz boshlarini egganlaricha turib qoldilar.

- Momosi, yur ketamiz... dedilar.

Bobomiz yo'llarida bir-bir bosib davom etdilar (353-b.).

Aytish mumkinki, jahon xalqlari uchun mushtarak bir odat - bobo, momolar vafotidan keyin uning nevaralariga bobo va momo nomlarini qo'yish udumi (o'tganlarning ruhini shod qilish, unutmaslik maqsadida) bo'lgan. Bu udum hanuzgacha ayrim joylarda (chunonchi, O'zbekistonning ham ko'pgina qishloqlarida) davom etib kelmoqda.

Ajdodlar nomi avlodlarga qo'yilgach, u (bobo va momo nomlari tabulashtiriladi va bola endi **Bobo, Katta, Kalon** yoki qiz bo'lsa **Momo, Buvi, Bibi** kabi evfemik nomlar bilan atala boshlaydi. Ajdodlar (**bobo**, momo, ota, ona kabi) qanday e'zozlansalar (masalan, sizlamoq, qattiq gapirmaslik kabi), nom olgan avlodga ham shunday izzat-ikrom ko'rsatiladi. Bora-bora ajdodlar nomini olgan bolalarning nomlari unutilib, evfemik nomlari rasmiy nomga aylanib ketishi ham mumkin (Bobo, Momo, Katta, Kalon, Ulug' kabi).

O'zbek tilida umuman, **er** (yoki erim) tushunchasi (xotinlar nutqida) **otasi, dadasi, adasi, umr yo'ldosh (-im), umrdosh (-im), turmush o'rtoq (-im), hayot yo'ldosh (-im), jufti halol (-im), juft (-im), ko'z ochib ko'rgan (-im), tanmahram (-im), xo'jayin (-im), xo'ja(-m), to'ra (-m), bek (-im), kishi (-m), boy (-im), mard (-im), mardak(-im), erkak (-im)** kabi evfemik vositalarga ega. Shuningdek, Xorazmning o'g'uz va qipchoq shevalarida o'ziga xos bo'lgan **yoshullim, xo'jayinim, ...og'am, ...akam, akasi, bizaniki, maniki, arkakimiz, dadasi, otasi, boquvchimiz, bovam, yonqim, yostiqdoshim, takadoshim, bovom** kabi evfemalar ham qo'llanadi.

Bu evfemalarning nutqiy qimmatini, qo'llanish xususiyatlari, darajasi bir-biridan farqli, albatta: ba'zilar so'zlashuv, ba'zilar adabiy til, ba'zilar badiiy til, ba'zilar eski til, ba'zilar

dialektal vosita uslubiga xos: Bolalarimning **otasi** butunlay boshqa sohaning kishisi («Saodat» 1989, № 10, 20-b.). Meni tabriklang, **dadasi!** dedi entikib (S.S., «Hurmatli o‘rtoq rafiqam», 210-b.). Uyda ota-onam, sevimli **umrdoshim**, hamma-hammalari nasihat qilishdi (T.Rasulov, «Qora ilon qurboni», 12-b.). Shunda onaxonimiz ham **umr yo‘ldoshlariga** muloyimgina tovushda so‘zladilar («FT», 1992, № 3, 227-b.). Nusratulla Netayxonning **jufti haloli** (A.Q., 4-T., 161-b.). **Ko‘z ochib ko‘rganim**, to o‘lguncha shu bilan birga bo‘laman (N.A., «Elvizak», 59-b.). Uzi, **begim**, Rayhon uyalib erining ko‘ksiga yuzini bekitdi (E.Tur., «Bu tog‘lar-ulug‘ tog‘lar», 67-b.). Qo‘ylaringiz ham ko‘pdir-a!? -Bilmadim. **Kishim** biladi. - Chaqiring-da, kishingizni! (S.S., «Tuya lo‘k-lo‘k etadi», 169-b.).

Ichay desam choyim yo‘q,

Haq do‘st, yo Alloh.

O‘ynay desam **boyim** yo‘q,

Haq do‘st, yo Alloh (S.S., «Saratonda qor yog‘di», ZZ-b.).

Er nomini aytish butunlay tabulashtirilgan joylarda hay, hey, ohay kabi undovlar bilan murojaat qilinadi: **Hey** deyman, mehmonlar jo‘natayapti (M.Safarov «Turnalar,..», 19-b.).

Umuman, er(im) tushunchasining anglatuvchi 20 dan ortiq evfemik atamalarning har qaysisining qo‘llanish o‘rni mavjud. Shulardan umrdoshim, begim so‘zlari ixcham va adabiy tilga juda mos keladi.

Xotin (im) tushunchasi o‘rnida **ayol, oila, onasi, oyisi, ayasi, opasi, ajasi, biyisi, beka, qallik, umrdosh, umr yuldosh, yo‘ldosh, turmush o‘rtoq, hayot yo‘ldoshi, yostiqdosh, rafiqqa, sohiba, zavja, ahliya, zaifa, ojiza, zan, halola, avrat, hasm, tanmahram, haram, mahram, evlug** kabi evfemik atamalar qo‘llaniladi. Shuningdek, Xorazmning o‘g‘uz va qipchoq shevalarida o‘ziga xos bo‘lgan **bollorim, oposi, kampirim, oilam, momom, bolloni anasi, bikam, malikam, uydagi, vazirim, prokurorim, tergovchim, zahar (za:r), kobra, anakonda** kabi evfemalar ham qo‘llanadi. Bunda, albatta, **vazirim, prokurorim, tergovchim, zahar (za:r), kobra, anakonda** evfemalari keyingi davrlarda yuzaga kelgan bo‘lib, so‘zlashuvda hazil tariqasida aytilishga xoslangani bilan ajralib turadi.

Bular ham tasvir obyektiga, uslubning turlariga, so‘zlovchining shaxsiyatiga qarab farqli qo‘llanadi. Masalan, xotin so‘zi bilan umr yo‘ldoshi atamasining uslub jihatdan farqli qo‘llanilishi qo‘yidagi matnda ravshan kuzatiladi: Zargarov (telefonda): - Bizning boshimizga bir mushkul ish tushib qoldi. Umr yo‘ldoshimiz qattiq betob... Xumorxon: Bunaqa gaplarni sizga kim qo‘yibdi xotinim deyavering, deydi (A.Q., 4-t., 90-b.). Yoki Rossiya Prezidenti rafiqasi bilan keldi gapida rafiqqa so‘zi boshqa evfemik sinonimlariga nisbatan uslub jihatdan eng mosidir.

Xotin tushunchasiching evfemik vositalariga misollar:

Ayolim vafotidan keyin dardmand bo‘lib qoldim (M.Koz., «Qo‘rqinchli Tehron», 127-b.). Nimaiki yozsam, eng avvalo oilamga, o‘g‘lim, qizimga o‘qib beraman. **Umr yo‘ldoshim** - adabiyotchi (O‘.H., «Notanish orol», 12-b.).

Astoydil har erkak **yo‘ldosh** demasa, Insof mahkamasi sudga boradi (G‘.G‘., 5-t., 96-b.). **Qallig‘ing** ham borishi kerak edi, o‘tir mashinaga (O‘.H., «Ikki karra ikki-besh», 156-b.). Ha, Razzoq so‘fining **ojizalarimiz** (Ch., «Kecha va kunduz», 107-b.). Qari odamga **mahram** kerak (A.Q., 2-, 313-b.). Men bir **tanmahram**ga zor (P. Qod., «Avlodlar dovoni», 106-b.). Nargizxon endi **haloling**-ku! (O‘.H., «Ikki karra ikki-besh», 150-b.). Qiz birovning **hasmi** (G‘.G‘., 5-t., 59-b.). Ko‘ngilsiz amir aydi: Saroymulk **zavjamning** izidan savol qilayin («Temurnoma», 98-b.). Bir kishi ro‘zada o‘z **ahliyasi** bilan jinsiy aloqa qilib qo‘yganini aytdi («Hadis»dan). Sen ham kimgadir **mahram** bo‘lishing kerak-ku! (P.Qod., «Avlodlar dovoni», 107-b.). Qozi domladan ayrilgan **haramni** fuqaro u yoqda tursin, hatto eshonlar ham ololmaydi (H.H., «Boy ila xizmatchi», 78-b.). Odam Atomiz, Havo onamiz bir-biridan - Odam **zanidan**, Havo eridan yuz yil adashdi («Temurnoma», 129-b.). Agar Ismoil zabih erdi teb uch taloq ont ichsa **evlugi** taloq bo‘lmagay («Qissasul anbiyo»dan). Bu kishi **ayolimiz** bo‘ladilar, - dedi Salixon Obidiy jindan shirakayf, davlatimning **sohibasi**, bolamning **ayasi** (M., «Umid», 147-b.).

“O‘tkan kunlar” romanida er-xotin nutqi bilan bog‘liq evfemizmlar juda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Xususan, ushbu asarda muallif xotin leksemasi o‘rnida 22 ta evfemizmi, er leksemasi o‘rnida 15ta evfemizmi qo‘llaydi. Asarda bunday evfemizmlar asosan ikki turda uchraydi: 1. Leksik evfemizmlar. 2. So‘z birikmasi tarzidagi evfemizmlar.

Leksik evfemizmlar. Evfemizmning bu turida tushuncha ta’sir doirasi silliqroq bo‘lgan leksemalar bilan ifodalanadi. Masalan, quyidagi gaplarda “xotin” leksemasi o‘rnida “rafiqa”, “jonim”, “xotin”, “andi”, “kelin”, “marg‘ilonlik”, “Tuproqbibi”, “Oltinbibi”, “xonim”, “malak”, “Zulayho”, “Layli”, “Oyim” kabi leksemalar bilan ifodalangan. **Rafiqa:** Chunki siz manim shar’iy **rafiqamsiz**-yaxshilik bilan-da va yomonlik bilan-da men buni isbot qilishg‘a hozirman! (317-b.). **Jonim:** Ro‘mol tugish bilan mashg‘ul latif qo‘llarni chet qo‘l kelib siqdi: – **Jonim!** (70-b.).

Xotin: –O‘zingga qolsa shu marg‘ilonlikni **xotinga** hisoblab ketaberar ekansan-da! (161-b.). **Andi:** -Xotin bo‘lmasa nima axir? -Qoshlik, qo‘zlik bir **andi!** (161-b.). **Kelin:** -**Kelinga** aytdingmi? – Aytdim (189-b.). **Oltinbibi:** Siz o‘zingizni tuproq bilan tenglashtirmakchi bo‘lg‘ansiz, lekin man hozir Kumushga ham qanoatlanmay **Oltinbibi** deb atamoq fikriga tushdim...(213-b.). **Marg‘ilonlik:** –**Marg‘ilonlikning** domlasi sihirchi hindi edi (364-b.). **Xonim:** Oy yuzlik rafiqam, qunduz qoshlik ma’shuqam Kumush**xonim**ga! (316-b.). **Malak:**

Men o‘zimga bag‘ishlangan kuch manbayini juda yaxshi onglar edim, mendagi bu o‘zgarish manba’i uy ichida uxlaguchi bir **malak** edi... Siz edingiz!

Muallif er leksemasiga o‘rnida “dushman”, “siz o‘shamu”, “qallig‘”, “begim” kabi leksemalarni qo‘llaydi. Dushman: Majburiyat ostida, yov qarashi bilan sekingina **dushmaniga** qaradi...(71-b.).

Siz o‘shamu: -Siz o‘shamu?

-Men **o‘sha**,-dedi bek.Ikkisi ham bir-biriga beixtiyor termulishib qoldilar (71-b.).

Begim: Begim, garchi achchiqlansangiz ham aytishka majburman: sizda vijdon, insof, rahm, va’da, vafo, yaxshilikni bilish, boring-chi, odamgarchilikdan hech gap yo‘q emish (198-b.).

Bundan tashqari, “O‘tkan kunlar”da *xotin* leksemasiga doir evfemizmlar so‘z birikmasi shaklida ham ko‘p qo‘llanilgan. Bularga misol qilib “yangi yor”, “uyatsizlikning qurboni”, “umidim yulduzi”, “orzum chechagi”, “hayotim tiragi”, “qunduz qoshlik malikam” kabi so‘z birikmalarini aytishimiz mumkin.

Yangi yor birikmasi asar davomida 3 o‘rinda qo‘llangan.

Yangi yor topganda do‘stlar, eskidan kechmoq kerak,

Eskini o‘lgan sanab, latta kafan bichmoq kerak (199-b.).

Onangizning o‘qiyturg‘on bayti manim sha‘nimg‘a tamoman teskari, chunki ota-ona orzusi xech vakt **yangi yorliq** vazifasini o‘tay olmas va hamisha boshqalarning orzu-havasi bo‘lib qola berar (213-b.).

Umidim yulduzi: Umidim yulduzi, orzum chechagi, hayotim tiragi Kumushimga!

Evfemizm orqali xalq ruhiyati, dunyoqarashi, ijtimoiy-madaniy munosabatlar aks etadi. Unda xalqning milliy qadriyatlari, etik va estetik qarashlari mujassamlangan.

Er-xotin nutqi bilan bog‘liq evfemik ifodalarni o‘rganish tilimiz imkoniyatlari kengligini namoyon etishi bilan bir qatorda, bunday so‘zlarni qo‘llashni yosh avlodga o‘rgatish, ularda nikoh va oila bilan bog‘liq ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi bilan birga, oilada er va xotin munosabatlarini mustahkamlaydi va ular o‘rtasidagi o‘zaro hurmatni kuchaytiradi. Oilada er va xotinning bir-biriga o‘zaro hurmati farzandlar tarbiyasida ham muhim ahamiyat kasb etadi, sharqona an‘analar hamda o‘zbekona milliy ruhning davomiyligini ta‘minlaydi.

2.2. Homiladorlik va tug‘ruq bilan bog‘liq evfemalar

Homiladorlik va tug‘ruq bilan bog‘liq evfemik nutqning shakllanishida jamiyat a‘zolarining, xususan, ziyoli nutqi ularning ma‘naviy saviyasi, axloq-odobi, didi va zavqi,

ongliligi, fikrlash darajasi, kasbi, yoshi, sotsial holati kabilar muhim rol o'ynaydi³⁹. Evfema qo'llash ma'lum darajada subyektiv xarakterga egaligini e'tirof etish kerak. Aks holda homila va tug'ruq bilan bog'liq evfemalar haqida gapirilmagan bo'lar edi. Evfema mana shu tomoni, ya'ni til faktiga aylanmaganligi bilan ham (lisoniy evfemadan mustasno) barqaror birlik, jumladan, frazemadan farqlanadi. To'g'ri, lisoniy evfema maqomiga ega bo'lgan evfema individuallik, okkazionallik xususiyatini yo'qotadi, yozuvchi yoki so'zlovchining "kashfiyoti" bo'lmay qoladi. Lekin bu lisoniy hodisalar nutq uchun aynan tayyorlangan degan gap emas. Chunki barqaror birliklarning ham haqiqiy hayoti nutq ichidadir. B.Yo'ldoshev frazeologik birliklarni yangi, individual avtor variantlarida qo'llash jarayonida uning barcha xususiyatlari yanada bo'rttiribroq ko'rinishini, qo'shimcha ma'nolar bilan boyishini ta'kidlagan⁴⁰. Bu bevosita evfemalarga ham taalluqlidir. Dunyodagi tillarning juda ko'pchiligida homiladorlik va tug'ish bilan bog'liq evfemalar mavjud. Masalan, fors tilida *zāyidan* ("tug'moq") fe'li o'rnida *be donyā āvardan* ("dunyoga keltirmoq"); *zāyidan* ("tug'ilmoq") fe'li o'rnida *be donyā āmadan* ("dunyoga kelmoq"); *ābestan qodan* ("homilador bo'lmoq") fe'li o'rnida *baččedār qodan* ("og'ir oyoqli bo'lmoq"), "bo'yida bo'lmoq" kabi evfemalar qo'llanilishi manbalarda keltiriladi⁴¹.

- *Do bačče dārid. Doxtar-e hefdah sāle, pesar-e do sāle. Pānzdah sāl extelāf ziyād ast, nist?*

- *Baččedār namiqodam.*

(– Ikkita farzandingiz bor. O'n yetti yashar qizingiz va ikki yashar o'g'lingiz. O'n besh yil farq – ko'p. Shunday emasmi?)

- Bo'yimda bo'lmadi.)⁴²

O'zbek tilida homiladorlik va tug'ruq bilan – ikki tushuncha bilan bog'liq evfemalar har bir guruhda ellikka yaqinni tashkil qiladi. Manbalardan yig'ib chiqilgan *bo'g'oz* sifati ma'nosini ifodalovchi evfemalarni ko'rib chiqamiz.

Boshqorong'u bo'lmoq. Odamlarday gulutaga, tuzga, kesakka **boshqorong'i bo'lsam-chi!** (A.Q., 1-t., 285-b.). **Bo'yida bo'lmoq.** Hozir yana uning buyida bo'lgan, uch oydan keyin farzand tug'ilishi kerak (P. Qod., «Avlodlar dovoni», 177-b.). **Vujud.** O'n kundan so'ng 25 yoshda tul qolgan kelinchak ko'ksi ostida qimirlagan **vujudni** his etdi («Saodat», 1989, №10, 31-b.). **Gavhar.** Sadaf

³⁹ Рагимзаде Н.Г. Об эвфемистических выражениях азербайджанского языка// Известия АН Азерб.-Баку, 1966. – №4. - С.13-16; Рагимзаде Н.Г. Идиоматические выражения в азербайджанском языке: Автореф.дисс. ...канд. филол. наук. – Баку, 1987.- С. 21.

⁴⁰ Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик birlikларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Фил. фан доктори ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. - Б. 20.

⁴¹ Nadjarova N. A. Fors tilida evfemizm va tabu so'zlarning funksional va semantik tahlili. Lingvistika (fors tili) magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.–T. 2013. B.47

⁴² Nadjarova N. A. Fors tilida evfemizm va tabu so'zlarning funksional va semantik tahlili. Lingvistika (fors tili) magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.–T. 2013. B.48

komi ichra to'lib qatralar, Paydo bo'ldi uning bag'rida **gavhar** (M.Ali, «She'rlar», 61-b.). **Gumon.** Bunday yovuzlikdan to'ldi paymona, Biroq vujudimda baxtsiz **gumona** (Sh.Soliyeva). **Gumoni bor.** Uyatni ham bir yerga yig'ishtirib shuni ma'lum tadirman kim, kelingiz bo'lmish Shahribonuning **gumoni bordir** (E.Turon, «Bu tog'lar ulug' tog'lar», 83-b.). **Donni cho'qimoq.** Tuxum qilmaydigan tovuqqa don bermayman degan Mirvali o'sha oqshom dog'da qoldi. Bu qiz u sepgan **donni cho'qib** qochgan edi (S.Ahm., «Jimjitlik», 82-b.). **Dog' paydo bo'lmoq.** Turmush qurgandan keyin Zulfiyaning yuzlarida **dog'lar paydo bo'ldi** (G'.G', «Puch gaplar», 13-b.). **Ikkiqat.** Nima, men **ikkiqat** xotinmanmi, lulkada yalpayib o'tiradigan (O'.H., «Ikki karra ikki - besh», 118-b.). **Ko'ngli sust ketmoq.** Ko'ngli nuqul achchiq anorga sust ketardi (P.Qod., «Avlodlar dovoni», 124-b.). **Natija hosil bo'lmoq.** ...va bundan natija ham hosil bo'lgan (Boqirg'oniy, «Bohouddin Balogardon», 29-b.). **Nishona paydo bo'lmoq.** Mana, sevgimizdan nishona ham paydo bo'ldi («Saodat», 1992, №2, 18-b.). **Oy-kuni yaqin.** Uyingda oy-kuni yaqin kelingiz bor ekan (S.Ahm., «Jimjitlik», 118-b.). **Oyoq olishi g'alati.** To'ydan uch hafta o'tar-o'tmas, onam «Kelinning oyoq olishi g'alatiroqmi?» - deb yaramga tuz sepgan edilar (O'.H., «Ikki karra ikki - besh», 175-b.). **Oyog'i og'ir.** Aslida Zulfiya erga chiqqan kundan boshlab oyog'i «og'irlashgan» edi (G'.G', «Puch gaplar», 13-b.). **Og'irbo'y.** Payg'ambarimizning onalari Omina og'irbo'y xotinlardek qursoq og'rig'ini sezmedi... (Sog'uniy). **Og'ir oyoq.** Birinchidan, qonuniy ZAGSdan o'tgan xotiningiz Nargis Qo'shshayevani og'ir oyoqligini bila turib qorniga tepgansiz! Qasddan! (O'.H., «Ikki karra ikki-besh», 187-b.). **Uchinchi kishi.** Oramizda yana uchinchi bir kishi bor («Saodat», 1992, №6, 12-b.). // **Uchinchi odam.** Nahotki, bizning munosabatlarimizni hech kim hatto... uchinchi odam ham saqlab qololmasa?! («Ayol va zamon», 1998, 16-dek.). **Yuzida dog'i bor.** Yuzingda dog' ko'rdim... muborak bo'lsin («Oila va jamiyat», 1989, 6-yanvar). **Yukli.** Shokir aka qizining yukli ekanligini eshitib, – Xudo oq yo'l bersin, - dedi (G'.G', «Qizaloq», 22-b.). // **Yukli bo'lmoq.** Ul vaqtda Omina Muhammad Rasulullohga yukli bo'ldi (Sog'uniy). **Qornida bir nimani sezmoq.** Salima birdan cho'chib ketdi, qornida bir nimaning ancha sezilarli ravishda urganini sezdi (G'.G', 4-t., 18-b.). **Homilador.** Ko'zlari ola-kula, simobdek o'ynagan homilador bir ayol ko'cha o'rtasiga chiqib o'tirib oldi... (M., «Umid», 333-b.).

Tarvuz yutgan. (Xorazm shevalarida ishlatiladi, uslubiy bo'yoqqa ega).

Tug'moq fe'li ma'nosini ifodalovchi evfemizmlar ham o'zbek xalqi mentalitetiga xos tarzda yuzaga kelganini ko'rish mumkin: **Bola ko'rmoq.** Niso buvi to'rt bola ko'rdi (A.Q., 1-t., 208-b.). **Bolali bo'lmoq.** Qizim olti yil deganda bolali bo'ldi («Saodat», 1992, №3, 21-b.). **Bo'shalmoq.** Bu kasallik qari bemorlarda, yaqinda bo'shalgan ayollarda kuzatiladi (I.M.Gryaznova, «Yengiltaklik oqibati», 65-b.). // **Bo'shalib olmoq.** Kelinim eson-omon bo'shalib olgandan so'ng... («Ayol va zamon», 1999, 21-may). **Vujudga kelmoq.** Xonimcha Mirza Jahongirga homilador erdi, oylar o'tib bir o'g'il vujudga keldi («Temurnoma», 112-b.). **Dunyoga kelmoq.** Biz orzu qilgan zuryod zora sizning qanotingiz

ostida dunyoga kelsa!... (P.Qod., «Avlodlar dovoni», 366-b.). **Dunyoga keltirmoq.** Hammamizni ham Ona dunyoga keltirgan-ku! («Oila va jamiyat», 1997, 3-noyabr). **Dunyo yuzini ko'rsatmoq.** Men umr bo'yi menga dunyo yuzini ko'rsatgan insonga ta'zim qilib yashayman («Oila va jamiyat», 1997, 3-noyabr). **Yengil bo'lmoq.** Agar keliningiz eson-omon engil bo'lsa bor-ku, keling, yaxshisi, aytib o'tirmang (N.A., «Elvizak», ZZ-b.). **Ko'zi yorimoq.** O'sha erda aytdim-ku, yo bugun, yo ertaga kennoyimning ko'zlari yoriydi deb (N.A., «Yelvizak», ZZ-b.). **Ko'paymoq.** Qutlug' bo'lsin kelin, eson-omon ko'payib oldingizmi? («Saodat», 1992, №3, 10-b.). **Ona bo'lmoq.** Xotin nima? – Faqat ona... ona bo'lish (A.Q., 1-t., 141-b.); Lekin nima bo'lganda ham Ayol – ona bo'lish uchun tug'iladi (A.Jumaqul, «Yurakka sig'magan gaplar», 15-b.). **Oq yo'l...** Shokir aka qizining yukli ekanligini eshitib: Xudo oq yo'l bersin, dedi (A.Q., 1-t., 245-b.). **Farzand ato qilmoq.** Xudoyi taolo unga bir farzandi solih ato qilibdi (G'.G'. , 5-t., 66-b.). **Farzandli bo'lishini orzu qilmoq.** Bitta qizim bor, yana farzandlarim bo'lishini orzu qilaman («Oila va jamiyat», 1992, 2-yanv.). **Farzand ko'rmoq.** ...u farzand ko'rди (M., «Umid», 6-b.). // **Farzandli bo'lmoq.** Tabelchining kelini bir yo'la to'rt farzandli bo'ldi (O'.H., «Kep qoling qurtdek yolg'onga», 204-b.). **Chaqaloq ingasi eshitilmoq.** Uning ozg'in qoramtir qo'llarida biron sehri bor ekanmi, besh-olti daqiqa uringandan keyin to'satdan chaqaloq ingasi eshitildi (P.Qod., «Avlodlar dovoni», 134-b.). // **Chaqaloq ovozi eshitilmoq.** Yanagi yil shu choq shu hovlida chaqaloq ovozi eshitilsin (so'zlashuvdan). **Yangi mehmon kelmoq.** Yangi mehmon keldi dunyoga, Qarshi oldi go'dakni zamin, Yo'rgakladi, tebratish uchun, Aylanardi shoshilmay vazmin (A.Omonturdiyev, «Tong», 12-b.). **Yangi mehmon ko'rmoq.** Qulluq! -dedi Bashirjon. -Ha, yangi mehmon ko'rdik (N.A., «Yelvizak», 93-b.). **O'g'il ko'rmoq.** Nasib bo'lsa, qo'chqorday bitta o'g'il ko'rasiz (N.A., «Yelvizak», 21-b.). **O'g'il hadya qilmoq.** To'ti og'a (Shohruhning xotini) ham Shohruh Mirzoga bir o'g'il hadya qildi (T.Fayziyev, «Ulug'bek avlodlari», 86-b.). // **O'g'illi bo'lmoq.** O'g'iloj xolaning qizi o'g'illi bo'libdi («Mushtum», 1993, №5, Z-b.). **Qizli bo'lmoq.** Xudoga shukr! Biz ham qizli bo'ldik («Saodat», 1993, №1, 8-6b.). **Qutilmoq.** Xonim, muborak bo'lsin, qizingiz o'ng'aygina qutildi, o'g'ilgina ekan! (M.Koz., «Qo'rqinchli Tehron», 299-b.). // **Qutilib olmoq.** Avval eson-omon qutilib oling, kelinoyi, nomi bo'lsa bir gap bo'lar («Mushtum», 1994, №5, 29-b.). **Qo'shaloq bo'lmoq.** Kelinning u yoqdan qo'shaloq bo'lib kelgani unga alam qildi (S.S., «Tuladan kelgan kelin», 127-b.). **Hadya etmoq.** Azizim Oyxon, ...Sen bizning sevikli farzandlarimiz Aziz va Oygulni hadya etgansan (I., «Qabohat yoxud...», 83-b.). Bulardan tashqari, Xorazm shevalarida tug'moq ma'nosini ifodalovchi yana quyidagi evfemizmlar ham bor: *bavakli bo'lmoq, qo'zilamoq, yengillashmoq, qutilib olmoq, bo'shalmoq* kabi.

2.3. Er-xotinning qarindoshlari bilan muomala nutqi evfemasi

Nikohdan keyin kelin tilida kuyov va uning oila a'zolarining nomlari, kuyov tilida kelin va uning oila a'zolarining nomlarini atash tabulashadi. Ular bir-birlarining otalarini - qaynota, onalarini - qaynona,

akalarini - qaynog'a, ukalarini - qayin (qayin ini, qayin uka), opalarini - qaynopa, singillarini - qaynsingil evfemik vositalari bilan atay boshlaydilar.

Quyida bu atamalarning paydo bo'lishi, etimologiyasiga doir to'xtalamiz.

Qaynona (qaynana) atamasida ona so'zi borligi uchun xotinning onasi tushunchasi anglashilib turadi. Biroq qayn (qayin) nima (bu qayin daraxtining nomi emas, albatta) degan savolga ba'zan tilshunos ham o'ylanib qoladi. Shu munosabat bilan, avvalo, **qayin** so'zining ma'noviy va shakliy o'zgarishlarini ko'zdan kechiraylik.

Qatin turkiy so'z bo'lib, qatishmoq // qotishmoq (qo'sharmoq, birlashmoq, chatishmoq ma'nosida) fe'li (tarixiy o'zagi qat // qot; hozirgi o'zagi: qatish // qotish) va -in qo'shimchasidan yasalgan: qatin - qotin - xotin. Demak, ba'zilar o'ylaganidek, **xoh** va **tun** (kecha, tun xohishi) so'zlaridan emas, qatin // qotin so'zlaridan kelib chiqqan: «q» tovushi «x»ga o'tgan.

Hozirgi qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq tillarida qo'llanadigan **qatin** so'zi o'g'uzcha talaffuz ta'sirida **kadin** (turk tilida), **gadin** (turkman, ozarbayjon tillarida) shaklini olgan: «q» tovushi «k», «g» ga; «t» tovushi «d»ga o'tgan. **Qayin** ham qatin so'zidagi «t» tovushini «y» talaffuz qilinishi natijasida paydo bo'lgan (qatin > qayin) va **qayn** elementi qaynota, qaynona, qaynog'a, qayni (qayn ini), qaynsingil, qaynagach (qaynegach) atamaları tarkibida qo'llanila boshlagan: qaynona - xotin onasi, qaynota-xotin otasi, qaynog'a-xotin akasi, qaynopa - xotin onasi, qaynsingil-xotin singlysi, qayinini - xotin ukasi kabi.

Yoki qozoq, qirg'izcha **qatinona** turkcha kadinana, turkmancha **gadin ene** atamaları (qatin, kadin, gadin so'zlari o'zbekcha xotin demakdir) ham qaynona (xotin onasi) tushunchasini ifodalagan.

Endi qaynoka, qaynota, qaynog'a, qaynopa, qayni, qaynsingil atamaları faqat erlar yoki kuyovlar nutqiga xos ekak, nega xotin yoki kelinlar ham bu atamalarni (masalan, qaynonam, qaynotam, ya'ni xotinimning onasi, xotinimning otasi shaklida) o'z nutqlarida qo'llaydilar, bu o'ta mantiqsizlikku?! degan savol tug'iladi.

Gap shundaki, til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida qayin so'zining qo'llanilishida formal-analogik ma'no ko'chish yuz bergan, **ya'ni** qaynota, qaynona atamaları er yoki kuyov nutqida qanday ma'noda qo'llanilgan bo'lsa, xotin yoki kelin nutqida ham xuddi shunday ma'noda - shunga o'xshatib (qayin endi xotin emas, er ma'nosida) qo'llanila boshlangan. Bora-bora **qaynota**, **qaynona**, **qaynog'a** atamaları xotin yoki kelin nutqida erimning otasi, erimning onasi, erimning akasi... tushunchalarini anglatadigan bo'lib qolgan. Aniqrog'i, bunda qayin so'zining asl ma'nosi (**xotin** tushunchasi) ayollar nutqida xotiradan butunlay uchgan bo'ladi. Hattoki, tilda ma'nosi, vazifasi formal-analogik usul bilan ko'chgan bunday so'zlar kategoriyasi ham mavjud. Masalan, **qayliq>qalliq>qalinliq** so'zidan bo'lib, dastlab faqat erkaklar nutqida qalin to'lanadigan, xotinlikka mo'ljallangan qiz ma'nosida qo'llanilgan. U tilning keyingi taraqqiyotida (aslda g'ayrimantiqiy bo'lsa-da) ayollar nutqida bo'lajak erga nisbatan

ham qo'llanila boshlangan.

Yoki **beva** so'zi dastlab: eri o'lgan, eridan ajralgan xotinlarga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa-da, keyinchalik xotini o'lgan, xotinidan ajralgan erkakka nisbatan ham qo'llanila boshlangan: Toshbolta: Mana, o'ttiz yildirki, bevaman, Pari! (H.G'.) deydi. Biroq ayrim e'tiborli manbalarda tul, yesir so'zlari ham xotinsiz erkaklarga nisbatan qo'llanilishi o'qtiriladiki («O'TIL», 1-T., 93-b.; 2-t., 221-b.), bunga qo'shilib bo'lmaydi.

Analogik ma'no ko'chish xotin olmoq iborasida ham kuzatiladi. Masalan, Surxondaryo shevasida xotinlar nutqida erga tegdim o'rnida **er oldim** iborasi ham qo'llaniladi. Yoki taloq qilmoq aslida erlar nutqi (faoliyati)ga xos bo'lsa-da, ayrim diniy manbalarda **erini taloq qildi** iborasi uchraydi.

Anglashiladiki, formal-analogik ma'no ko'chish hodisasi tashqi tomondan g'ayrimantiqiy bo'lib ko'rinsa-da, u aslida ma'lum bir til qonuniyati asosida yuz beradigan, nutqni boytituvchi tabiiy bir jarayon. Qolaversa, xotininimning otasi, onasi yoki erimning otasi, onasi o'rnida qaynotam, qaynonam; eri yo'q, xotini yo'q o'rnida **beva, boshi ochiq** iboralarni qo'llash nisbatan nutqiy odob, evfemik ifoda hisoblanadi.

Kelin va kuyov nutqida qo'llanadigan yuqoridagi qaynota, qaynona, qaynog'a, qaynopa, qaynuka, qaynsingil kabi atamalarning evfemikligi ismga nisbatan, albatta. Bundan tashqari, har ikkala shaxs (kelin, kuyov nutqida qaynotaga: **ota**, doda, dada, ada (ada - Toshkentda); qaynonaga ona, aya, **oyi, aja (aja** -Boysunda); qaynog'aga **aka**; qaynopaga **ona** kabi qarindoshlik atamaları bilan ham murojaat qilinadiki, buni tabu tushunchalarni evfemalashtirishning ikkinchi bosqichi deyish mumkin. Masalan, Vohidov yoki Vohidova deyishdan ko'ra **qaynota** yoki **qaynona** (nisbiy evfema), qaynota yoki qaynona deyishdan ko'ra esa **doda, dada, ada** yoki **oyi, aya, aja, ona** deb murojaat qilish yanada qulay va yumshoqdir.

Tog' chorvadorlari (kelin, kuyovlari) nutqida qaynotaga nisbatan (urug'i, qarindoshi bo'lmasa ham) **tog'a, amaki, bobo**; qaynonaga nisbatan **xola, amma, moma** kabi qarindoshlik atamalarini evfemik vosita sifatida qo'llayveradilar. Kelinlar qaynog'alariga **aka** yoki kasbi kori bilan bog'liq **Rais aka, Katta aka, Mudir yaka, Hoji aka, Mulla aka, Cho'pon aka, Muallim aka...**; qayin uka, qayin singillariga esa **uka**, singil deyishdan ko'ra, ularga ko'proq xarakterli belgilariga asoslanib, o'zlari qo'ygan nomlar: taxallus va laqablar bilan (**Xol**-dor qiz, erka **qiz, qora soch, jingalak bola, oq qiz, kokildor bola, kenja** bola, kenja qiz kabi) murojaat qiladilar-ki, bu jarayonlar ham badiiy adabiyotlarda o'z aksini topmagan.

XULOSA

Nikoh bilan bog‘liq evfemizmlarning lisoniy xususiyatlarini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Nikoh bilan bog‘liq evfemizmlar til lug‘at tarkibining alohida qatlami hisoblanadi. U xalqning ijtimoiy hayoti, milliy urf-odatlarini, mentaliteti bilan bog‘liq holda mavjud yuzaga kelgan bo‘lib, ular madaniyat va til manbalaridan tarkib topgan etnolingvistik tushunchalardir.

Nikoh bilan bog‘liq evfemizmlar tilshunoslikda nisbatan kam o‘rganilgan mavzulardan biridir. Ushbu mavzuni turkiy tilshunos olimlar va rus olimlari tadqiq qilganlar. O‘zbek tilshunosligida ushbu jarayon bilan bog‘liq tabii va evfemizmlar butun imkoniyatlariga ko‘ra chuqur o‘rganilmagan.

Nikoh bilan bog‘liq evfemizmlar diniy e‘tiqoddan paydo bo‘lishi bilan birga jamiyatdagi odob-axloq qoidalari asosida shakllangan bo‘lib, tilning lug‘at boyligini oshiruvchi unsurlardan biridir. Ular so‘zlarni ma‘nosini o‘zgartirishda, kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Nikoh bilan bog‘liq evfemizmlar o‘zbek xalqining jamiyatdagi o‘zaro munosabatlari, madaniyati tarixini o‘zida aks ettirish xususiyatiga ega.

Sovchilar, quda-anda, kelin-kuyovlar nutqida nizolardan qochishga harakat qilish, suhbatdoshda suhbat chog‘ida noqulay sharoit tug‘dirmaslik, ishni niqoblamoq, uyat hisoblangan tushunchalarni aytishdan qochish, bekitish kerak bo‘lgan so‘zni tariflashda umumlashtirish, ma‘lumotni yashirmoq, shifrlamoq, shuningdek, xalqimizning oila, nikoh bilan bog‘liq yuksak axloqiy qarashlari nikoh bilan bog‘liq tushunchalar o‘rnida yuzaga kelgan evfemizmlarning boshqa tushunchalarni aks ettiruvchi evfemizmlarga qaraganda salmog‘i ko‘pligini dalillovchi omillardan biridir.

Evfemizm jarayonining o‘ziga xosligi gapirilayotgan narsa qo‘pol, noqulay so‘z deb baholanishi, so‘zlovchi vaziyatni yumshoqroq ibora tanlab niqoblab gapirishida ko‘rinadi. Shuning uchun nikoh bilan bog‘liq evfemizmlarning qo‘llanishi ham nutq usuli va uslubiga bog‘liq bo‘ladi.

Er-xotin nutqi bilan bog‘liq evfemik ifodalarni o‘rganish tilimiz imkoniyatlari kengligini namoyon etishi bilan bir qatorda, bunday so‘zlarni qo‘llashni yosh avlodga o‘rgatish, ularda nikoh va oila bilan bog‘liq ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi bilan birga, oilada er va xotinning o‘zaro, hamda ularning boshqa qarindoshlari bilan bo‘lgan munosabatlarini mustahkamlaydi, ular o‘rtasidagi o‘zaro hurmatni kuchaytiradi. Oilada er va xotinning bir-biriga o‘zaro hurmati farzandlar tarbiyasida ham muhim ahamiyat kasb etadi, sharqona an‘analar

hamda o‘zbekona milliy ruhning davomiyligini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent.2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -Toshkent: «O'zbekiston», 1998. –524 b.
3. Karimov I.A. Halollik va fidoyilik – faoliyatimizning asosiy mezonini bo'lsin. -Toshkent: O'zbekiston, 1994.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

1. Abdullayev A. Ko'makchilar yordamida so'z birikmalarida ifodalangan sintaktik munosabatlar // O'zDU asarlari, Yangi seriya № 91. –Samarqand, 1958. -167 – 186 b.
2. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. -Toshkent: Fan, 1987. - 86 b.
3. Abdullayev F. O'zbek tilining ug' o'z lahjasi. -Toshkent, 1978. –102
4. Алтаев, С. Эвфемизмы в туркменском языке, Ашхабад, 1955.
5. Ахмедов, А. К., Табу и эвфемизмы в казакском языке, Алматы, 1973.
6. Боровой Л.Б. “Путь слова” М., 1963
7. Видлак С.Н. “Проблема эвфемизма на фоне теории языкового поля” М., 1967.
8. Джаббаров Н. М., Табу и эвфемизмы в азербайджанском языке, Баку, 1972
9. Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: автореф. дис...канд.филол.наук. Т.1963.
10. Vegmatov E.A.Nomlar va odamlar.- T.:Fan, 1966.
11. Ергазиева Н.И. Взаимосвязь прозвищ табу и эвфемизмов в казахском языке// Ономастика Узбекистана ИЯЛ, Ан Уз ССР. – 1989.
12. Москвин В.П. “Эвфемизмы” М., 1999.
13. Ларин Б.А. “Об эвфемизмах” Проблемы языковедения Л., 1961
14. Абдуллаев Ф. Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир масалаларига доир: Ўз ФА Тил ва адабиёт институти асарлари. – Т.: Фан, 1949. – Б. 25-35.
15. Абдуллаев А. Риторик сўроқ гаплар эмоционал-экспрессив фикр ифодалаш воситаси сифатида// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1974.– №4. – Б. 47-51.
16. Абдурасулов Е. Нутқ жараёнида сўз маъносини кучайтириш усули ва воситалари // Нутқ маданияти масалалари. – Тошкент, 1993. – Б.118-21.
17. Абдурахмонов И. Семантик тортилиш, ўзбек тилининг лексик-семантик хусусиятлари: ТошДПИ Илмий асарлар тўплами. –Тошкент, 1988. – Б.77-82.

18. Абдурахмонов Ғ. Ҳозирги замон ўзбек тилининг адабий усуллари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1992. – №5-6. – Б.28-36.
19. Алиқулов Т. Яна маъно кўчиш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1974. – № 1. – Б.74-77.
20. Бегматов Э. А. Нутқ маданияти мезонлари// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. – Б. 6-9.
21. Бердалиев А. Нутқнинг баъзи лисоний ва коммуникатив асослари ҳақида // Нутқ маданияти масалалари. –Тошкент, 1993. – Б.12-16.
22. Валиханов О. Тасвирий ҳарфлар// Гулистон. – Тошкент, 1972. – № 5. – Б.19-22.
23. Исматуллаев Н. Эвфемизмларнинг луғат составини ва сўз маъноларини бойитишдаги аҳамияти: ТошДШИ Илмий асарлар тўплами. 2–китоб, 1964. – Б.3-12.
24. Миртожиев М. Кўчма маъно ҳосил қилувчи ҳодисалар классификациясига доир// Ўзбек филологияси масалалари: ТошДУ Илмий асарлар тўплами. –Т., 1970. – Б.98-105.
25. Мукаррамов М. Кўчимларнинг ўзаро муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1976. – № 5. – Б.52-53.
26. Неъматов Ҳ.Ғ. Сўз, унинг тил ва нутқдаги ўрни// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1988. – № 6. – Б.38-41.
27. Нурмонов А. Тасдиқ ва инкорнинг паралингвистик воситалар ёрдамида ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент,1979. – №.1. – Б.132-137.
28. Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Сўз қўллаш санъати. – Термиз: Жайхун, 1994. – 60 б.
29. Omonturdiyev A. O‘zbek nutqining evfemik asoslari.Toshkent.1997
30. Omonturdiyev A. O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati.Toshkent, Fan, 2006.-136 b.
31. Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi. - Toshkent, Fan, 2006.-232 b.
32. Рустамов Х. Сўз қўллаш эстетикасига доир баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. – №5. – Б.54-60.
33. Тоғаева Д. Инс-жинслар ҳақида. Ўзбек оғзаки ҳикояларининг образлар системаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1991. – № 6. – Б.44-47.
34. Усмонов С. Ҳозирги замон ўзбек тилида омоним ва синоним: ТошДПИ Илмий асарлар тўплами. – Тошкент, 1959. – Б.25-34.
35. Чориев Б., Ҳазратқулов А. Сўз танлаш маҳорати // Нутқ маданияти масалалари. – Тошкент, 1993. – Б.42- 45.

36. Шамсиддинов Х. Сўзларнинг эвфемик функционал-семантик синонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1997. – № 6. – Б. 22-28.

Internet манбалари

<http://www.google.com>.

<http://wikipediya.com>

<http://ziyo.uz>

<http://bilinç.com>

<http://referat.ru>

ILOVA

(Nikoh bilan bog‘liq evfemizmlar so‘zligi)

BALOG‘ATGA YETMOQ ma‘nosini ifodalovchi evfemizmlar

Balog‘atga yetmoq	Katta qiz bo‘lib qolmoq
Bo‘yga yetmoq	Pishmoq
Bo‘yi yetib qolmoq	Rasida bo‘lmoq
Bo‘yi yetmoq	To‘lishib qolmoq
Yigitlar nazariga tushmoq	O‘n oltiga kirmoq
Yetilmoq	Husnga to‘lmoq
Kabira bo‘lmoq	O‘n sakkizga kirmoq
Ko‘zga ko‘rinmoq	O‘n sakkiz yoshda
Ko‘zga tashlanib qolmoq	

SEVMOQ ma‘nosini ifodalovchi evfemizmlar

Aqlini oldirmoq	Ko‘ngil olmoq
Aql-u hushidan begona bo‘lmoq	Ko‘ngil qo‘ymoq
Bir og‘iz gap aytmoq	Ko‘ngli bor
Bulbuli bor	Ko‘ngli ketmoq
Degani bor	Ko‘ngli band bo‘lmoq
Yoqtirmoq	Ko‘nglini band qilmoq
Jingalak sochga band bo‘lmoq	Ko‘ngli suv ichib qolmoq
Pinmoq	Ko‘nglidan joy olmoq
Ipsiz bog‘lanmoq	Ko‘nglini egallamoq
«Yigiti» bor	Layli bo‘lib qolmoq
Ko‘zga uyqu kelmaslik	Mayl qo‘ymoq
Ko‘ngil bermoq	Majnun bo‘lmoq
Ko‘ngil duri bor	Maftun etmoq

Mahliyo bo'lmoq
Muhtojlik
Nazari tushmoq
Oromi buzilmoq
Oshiq bo'lmoq
Oshiq-ma'shuq bo'lmoq
Savdoyi bo'lib qolmoq
Suymoq
Suygan osh
Tanlagani
Tinchi yo'qolmoq
Topishgani
Tohiru Zuhro
Uyqusiz bo'lib qolmoq
Uchratmoq

Xayoli uchmoq
Xat olib-xat bermoq
Xaridori bor
Xohlagani
Shaydo bo'lmoq
Egalla(n)moq
Yaxshi ko'rmoq
O'sha
Qalbini mavjlantirib yubormoq
Qalbini oldirmoq
«Qiz»i bor
Halovatini yo'qotmoq
Halovatidan ajralmoq
Hurmat qilmoq
Hushini oldirmoq

UNASHTIRMOQ *ma'nosini ifodalovchi evfenizmlar*

Aytilmoq
Atalmoq
Bag'ishla(n)moq
Beshikkerti qilinmoq
Boshini bog'lamoq
Narzi niyoz qilmoq
Nasibasi-nasibasiga qo'shilmoq
Non sindirmoq
Non ushatmoq
Oq kiymoq
Patir ushatmoq
Ro'yxatdan o'tmoq
Taqdiri taqdiriga qo'shilmoq
(bog'lanmoq
Unashtir(il)moq
Fotiha bo'lmoq
Fotiha ko'tarmoq

Fotiha to'yi bo'lmoq
Fotiha qilmoq
El ma'lumi qilmoq
Etak yirtish qil(in)moq
Yulduzini yulduziga qo'shmoq
Qulog'i tishlatilmoq
Qo'y yubormoq
Oq olishmoq
Ro'mol olishmoq
Ro'mol yirtishmoq
Patir olishmoq
Patir sindirmoq
Non sindirmoq
O'g'ri patir olishmoq
Potyalamoq
Ro'mol o'rab qo'ymoq
Eshik ochar qilmoq

Boshini boylab quymoq

XOTIN OLMOQ (uylanmoq) *ma'nosini ifodalovchi evfemizmlar*

Aya (oyi, ona, opa...) olib bermoq.	Oilaviy turmush qurmoq
Axdini qabul qilmoq	Ola xo'rxin (bo'yinga, gardanga,
Bir yostuqqa bosh qo'ymoq.	elkaga) tushmoq
Bir juft bo'lib kelmoq	Olmoq
Bir oilaning ota-onasi bo'lmoq	Olib bermoq
Boshiga ro'zg'or yumushi tushmoq	Onasi o'pmagan (qiz)ni olmoq
Boshini ikki qilmoq	Tegib qolmoq
Bo'lmoq	Tengini topmoq
Va'daga vafo qilmoq	Topishib qo'ymoq
Yo'ldosh qilmoq	Turmush tashvishn tushmoq
Kelin qilmoq	Turmush qurmoq
Kelin olmoq	To'y bo'lmoq
Kelin olib bermoq	Uylamoq
Malika qilmoq	Uylanmoq
Maqsadga etmoq	Uylantirmoq
Nasibasi qo'shilmoq	Uyda boshqa xotin o'tirmoq
Nikoh o'qimoq	Xohlagani bo'lmoq
Nikoh qildirmoq	Evlanmoq
Oyog'i to'rtta bo'lmoq	Ergashtirib kelmoq
Oyog'ini to'rtta qilmoq	Yulduziga yulduzi qo'shilmoq
Oila boshlig'i (xo'jayini, egasi,	Qilmoq
sohibi) bo'lmoq	Qovushmoq
Oila qurmoq	Hayotga qadam qo'ymoq

ERGA TEGMOQ (bermoq) *ma'nosini ifodalovchi evfemizmlar*

Ahd aylamoq	Kuyovga bermoq
Bermoq (berib yubormoq)	Kuyovga tegmoq
Baxtini topib ketmoq.	Kuyovlikka xohlamoq
Bir yostiqaqa bosh qo'ymoq	Kuzatmoq
Birovning uyiga bormoq	Kuzatib yubormoq
Bo'lmoq	Ko'nmoq
Joylashtirmoq	Nikohiga olmoq

Nikohiga kirmoq	Uzatmoq
Nikohiga o'tmoq	Uzatib yubormoq
Nikohiga rozi bo'lmoq	Uzatib kelmoq
Nasibasi qo'shilmoq	Uzatib bormoq
Oila qilmoq	Umrni bag'ishlamoq
Oila qurmoq	Familiyani o'zgartirmoq
Turmush qilmoq	Chiqarmoq
Turmush qurmoq	Egasiga topshirmoq
Turmushga bermoq	Er qilmoq
Turmushga uzatmoq	O'zini topshirmoq
Turmushga chiq(ar)moq	O'zni bag'ishlamoq
To'y bo'lmoq	Qiz chiqarmoq
Uy qilmoq	Qutilmoq
Uyli bo'lmoq	Qutilib olmoq
Uyli qilmoq	Qo'shni hovliga bormoq
Uyli-joyli qilmoq	Hamsoyaning uyiga bormoq

O'PMOQ ma'nosini ifodalovchi *evfemizmlar*

Bo'sa bermoq	Lablar bir-biriga yopishmoq
Bo'sa bilan mukofotlamoq	Labni lab izlab topmoq
Bo'sa hadya qilmoq	Og'izni shirin qilmoq
Dudoqlar lolalanmoq	Og'izni shirin qilish
Labini bermoq	So'rmoq
Labini uzatmoq	Shakar bermoq
Lab-labga band bo'lmoq	
Qand so'rmoq	

NIKOHNING BIRINCHI KECHASI ma'nosini ifodalovchi *evfemizmlar*

Ishini bitirmoq	G'unchasini ochmoq
Ishini tugatmoq	G'unchani uzmoq
Pechatini olmoq	
Muhrini buzmoq	
Qizligini olmoq	
Qizilni ko'rsatmoq	
Xotin qilmoq	

ER (-im) ma'nosini ifodalovchi *eyfemizmlar*

Adasi	To'ram
Bag'rim	Umrdoosh
Begim	Umr yo'ldosh
Boyim	Xo'jayin
Bolalarimning otasi (dadasi, adasi)	Erkak
Dadasi	Yuragim
Yor	Qimmatligim
Yostiqdosh	Quvvat
Jonim	Hayot yo'ldosh
Juftim	Yoshullim
Jufti halol	Xo'jayinim
Kishi	...og'am
Ko'z ochib ko'rganim	...akam
Mardak	Akasi
Otasi	Bizaniki
Sohib	Maniki
Turmush o'rtoq	Arkakimiz
Otasi	Dadasi
Boquvchimiz	Takadoshim
Bovam	Bovom
Yonqim	
Yostiqdoshim	

**XOTIN (-im) ma'nosini ifodalovchi
*eyfemizmlar***

Avrat	Yo'ldosh
Ayol	Yor
Aya	Yostiqdosh
Axliyat	Juft
Beka	Jufti halol
Bulbul	Zavja
Gul	Zavjayi halol
Dildor	Zaifa

Zan	Halol(a)
Kampir	Bollarim
Kelin	Oposi
Mahram	Kampirim
Ojiza	Momom
Oila	Bolloni anasi
Oyisi	Xotin
Onasi	Jonim
Opasi	Kelin
Rafiqa	Ko‘z ochib ko‘rgani
Sohiba	Yangi yor
Tanmahram	Umidim yulduzi
Turmush o‘rtoq	Orzum chechagi
Uyning guli	Hayotim
Umrdoosh	Hayotim tiragi
Umr yo‘ldoshi	Malikam
Xasm	Malak
Xonim	Oyim
Evluk	Ey
O‘	Zahar
U	Kobra
O‘rtoq	Anakonda
Qalliq	
Hayot yo‘ldoshi	
O‘ynashmoq	Qo‘yniga solmoq
Qaramoq	Qushilmoq
Quchog‘ida yotmoq	Qo‘shilib olmoq
Quchog‘iga olmoq	Qo‘shmoq
<i>BO‘G‘OZ ma‘nosini ifodalovchi evfemizmlar</i>	
Boshqorong‘u bo‘lmoq	Gumoni bor
Bo‘yida bo‘lmoq	Donni cho‘qimoq
Vujud	Dog‘ paydo bo‘lmoq
Gavhar	Ikkiqat
Gumon	Ko‘ngli sust ketmoq

Natija hosil bo'lmoq	Yukli
Nishona paydo bo'lmoq	Yukli bo'lmoq
Oy-kuni yaqin	Qornida bir nimani sezmoq
Oyoq olishi g'alati	Homilador
Oyog'i og'ir	Homilador
Ota salobidan ona botinig'a bog'lanmoq	Yukli
Og'irbo'y	Ikkiqat
Og'ir oyoq	Bo'yida yuki bor
Uchinchi kishi	Og'iroyoq
Uchinchi odam	Xomilalik
Yuzida dog'i bor	Bo'lajak ona
	Tarvuz yutgan
TUG'MOQ ma'nosini ifodalovchi efemizmlar	
Bola ko'rmoq	Farzandli bo'lmoq
Bolali bo'lmoq	Chaqaloq ingasi eshitilmoq
Bolasini qo'liga olmoq	Chaqaloq ovozi eshitilmoq
Bo'shalmoq	Yangi mehmon kelmoq
Bo'shalib olmoq	Yangi mehmon ko'rmoq
Vujudga kelmoq	O'g'il ko'rmoq
Dunyoga kelmoq	O'g'il hadya qilmoq
Dunyoga keltirmoq	O'g'illi bo'lmoq
Dunyo yuzini ko'rsatmoq	Qizli bo'lmoq
Yengil bo'lmoq	Qutilmoq
Ko'zi yorimoq	Qutilib olmoq
Ko'paymoq	Qo'shaloq bo'lmoq
Ona bo'lmoq	Hadya etmoq
Oq yo'l	Bavakli bo'lmoq
Farzand ato qilmoq	Qo'zilamoq
Farzandli bo'lishini orzu qilmoq	Yengillashmoq
Farzand ko'rmoq	Qutilib olmoq
Bo'shalmoq	